

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKUL`TETI

«PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA» KAFEDRASI

**Umumiy o`rta ta`lim maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish
mazmuni va uslublari
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajardi: «Pedagogika-psixologiya»
ta`lim yo`nalishi bitiruvchi
4-kurs talabasi M.R.Sayilxonova**

Ilmiy rahbar: D.X.Umurzoqov

NAVOIY – 2012

MUNDARIJA

1. BOB. TA`LIM SOHASIGA PSIXOLOGIK XIZMATNING KIRIB KELISHI.....

1.1. Chet-el va O`zbekiston ta`lim tizimiga psixologik xizmatning tadbiq etilish..

1.2. Xalq ta`limi tizimida psixologik xizmat.....

1.3.Psixologik xizmat to`g`risida Nizom.....

1.4. Умумий ўрта таълим мактабларидаги психолог ишининг ўзига хос томонлари.....

1.5. Amaliyotchi psixolog faoliyatida maxalla, maktab va oila hamkorligining tutgan o`rni.....

2. BOB. UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI VA ISH MAZMUNI.....

2.1. Olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarligi diagnostikasi.....

2.2. Iqtidorli (iste`dodli) bolalarni izlash, tanlash va ularga ta`lim-tarbiya berish.....

2.3. Tarbiyasi og`ir bolalar bilan ishlash

2.4. O`quvchilarni o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalariga yo`naltirish hamda tavsiyanomalarni berish.....

2.5. Dars mashg`ulotlarini psixologik tahlili

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

KIRISH

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Prezident I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisi IX sessiyasidagi "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" mavzusidagi so'zlagan nutqidan kelib chiqqan holda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur" (1997 yil 29 avgust) ning amalda qo'llanilishi bugungi shaxs faoliyatidan, uning ijtimoiy taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillaridan yanada unumliroq foydalanish yo'llarini izlashga da'vat etadi. Bu esa, avvalo inson ma'naviyati, ruhiyati va ijtimoiy kamoloti bilan shug'ullanuvchi psixologlar oldiga bir muncha jiddiy va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Bu vazifalarning bajarilishi esa har bir shaxs va uning faoliyatini bugungi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tamoyillari qo'yg'an talablar asosida qaror toptirishga ko'maklashuvchi psixologik xizmat jarayonining muvaffaqiyatli tatbiq etilishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir. Zero, shaxs va uning faoliyatini har tomonlama rivojlantirish muammosiga psixologiyaning amaliy-tatbiqiy yo'nalishlari asosida yondashish zarurligi haqida ko'pgina olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Ayniqsa, o'zbek olimlaridan E.G'oziev, M.G.Davletshin, G'.B.SHoumarov, B.R.Qodirov, R.Gaynutdinov, V.M.Karimova, N.A.Sog'inovlarning ham O'zbekiston umumta'lim maktablari va oila tizimlarida psixologik xizmatni joriy etish borasida olib borayotgan qator nazariy-ilmiy va amaliy-uslubiy ishlari Respublikamizda psixologik xizmatni joriy etish va rivojlantirish uchun ma'lum darajada asos bo'lmoqda.

Mustaqil Respublikamiz kelajagi iste'dodli, barkamol yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek,

“Bilimga chanqoq iste`dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoiy insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir”. Yurtimizda ta`lim muassasalarida psixologik xizmatni, yoshlarni kasbga yo`naltirish va pedagogik psixologik tashxis markazlarining tashkil etilishi, bunday g`oyat ulug` vazifani bajarish yo`lidagi fayzli qadamlardan biridir. Zero, ta`lim muassasalarida psixologik xizmat bolalarining iqtidorini aniqlash, ularni o`z jismoniy va ruxiy imkoniyatlariga mos ta`lim muassasalariga, kasblarga yo`llash orqali ulardan mavjud iste`dodlarning yanada rivojlanishi, amaliy faoliyatida samarali natijalarga erishishlariga xamisha yordam beradi. Shu bois, ta`lim muassasalarida psixologik xizmatini takomillashtirish masalasi xozirgi kunnig dolzarb muamolardan biridir.

Bugungi kunda maktablarda amaliyotchi psixolog mutaxassisligini zarur extiyoj sifatida qabul qilinishi ushbu yo`nalishda kutilgan eng muxim qadamlardan biri deyish mumkin.

Bu ulkan vazifani yechish inson omili bilan bog`liq bo`lib bunda psixologiya va pedagogika fanlarining aloxida o`rni, saloxiyati xamda ma`suliyati yaqqol sezilib turadi. Ayniqsa keyingi paytlarda Respublikamizdagi barcha umum ta`lim maktablarida oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida olib borilayotgan amaliy ishlar o`sib kelayotgan yoki bunyodkor avlodni ijtimoiy taraqqiyot asosida tarbiyalashni ta`minlashga xizmat qilmoqda. Shunday bo`lsada xali xam bu borada yechimini kutayotgan pedagogik-psixologik muamolar talaygina. Bu muamolar eng avvalo umumta`lim maktablarida o`quvchi shaxsini o`rganish va rivojlantirish jarayonida shaxsni tarbiyalash jarayonlari bilan bevosita bog`liqdir.

Ta`lim muassasalarida psixologik xizmatning joriy etilishi ta`lim tarbiya jarayonini psixologik jixatdan taminlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu jarayonda psixologik xizmatning o`rni beqiyosdir. Buni ushbu xizmatga o`quvchi yoshlar pedagog xodimlar va ota-onalarning qiziqishlari ortib borayotganligida yaqqol ko`rish mumkin. O`quvchilar, talabalar, amaliyotchi

psixologlarga, asosan o`zlarining shaxs xususiyatlarini, irodaviy sifatlari, xis-tuyg`ulari, o`z-o`zini boshqarish imkonoyatini, intellektual salohiyat darajasini, psixodiagnostik uslublar yordamida aniqlash va o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish, rivojlantirish, kasbga yo`naltirish, shaxslararo munosabatlardagi muamolarni hal etish masalalari bo`yicha murojat qilishadi. Pedagoglar esa bolalar o`quvchi yoshlarda uchraydigan o`qish malakalari, ko`nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot, shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sababini aniqlash, o`quvchi-yoshlarning o`qishga nisbatan motivasiyasini oshirish, ularga samarali pedagogik-psixologik ta`sir etish yo`llari haqida psixologik maslaxatlar olishni va o`quv-treninglarida qatnashishni xoxlashadi. Ota-onalar bolalarni to`g`ri tushinishi, ular bilan ishonchli munosabatlar o`rnatish masalalariga ko`proq qiziqadilar.

Ma`lumki, mazkur soxa yangi bo`lganligi sababli, bu bilan bog`liq qator muamo va qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Jumladan, ko`pincha ular tashis amaliyotida qo`llanilayotgan psixodiagnostik metodikalarning ayniqsa o`zbek tilida kamligi, mukammal emasligi, milliy test normalarning mavjud emasligi, bo`lib bu o`z navbatida bu bilan bog`liq bir qator jixatlar amalga oshiradi:

- hozirgi bosqichda amaliyotchi psixologlar tomonidan qo`llanilayotgan bunday metodikalar kamchilikni tashkil qiladi.
- mazkur metodikalarni barcha tashxis markazlari xodimlari va ta`lim muassasalari psixolog mutaxassislar o`z amaliyotida to`la qo`llay olmaydilar.

Ta`lim tizimidagi psixologlar faoliyatlari jarayonida psixologik tuzatish va rivojlantirish ishlarini tashkil etish, yani psixokorreksion faoliyatlari yuzasidan qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. O`quvchining shaxsi nutqi va aqliy rivojlanishidagi buzilishlarni o`qishdagi o`zlashtirmaslik sababalarini aniqlash va shu asosida ular bilan aloxida tuzatish va rivojlantirish ishlarini olib borish, ulardagi imkoniyatlarni keng miqyosda o`rganish va rivojlantirish orqali o`quvchi

shaxsidagi faollikni oshirish yo'llarini izlash, psixologlardan yanada bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini talab etmoqda.

Ta'lim muassasalarida psixolog faoliyatini takomillashtirishning qo'yidagi jixatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- Ta'lim muassasalarini yuqori malakali psixolog kadrlar bilan taminlash va ular malakasini oshirishni tashkil etish;
- Ta'lim muassasalarini psixologik xizmatni nazariy metodologik jixatdan taminlash;
- Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatni uslubiy jixatdan taminlash;

Shu jixatlarni hisobga oladigan bo'lsak, ilgari surilayotgan muammo dolzarb hisoblanadi. Chunki jamiyatda inson shaxsiga nisbatan intilish ishtiyoqni ortib borayotganligi, shaxsning xususiyat va holatlari haqida amaliy va nazariy bilimlarga ega bo'lishlikni taqoza qiladi. Shu bois, mazkur muamoni yechimini topishga bu boradagi ishlarni jonlantirishga doir tadbirlar dasturini amalga oshirish va bu boradagi ishlarni keng jamoatchilikga ommalashtirish lozim.

Umum o'rta ta'lim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o'z faoliyati davomida ta'lim muassasining ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zo'riqishlarini yuz berishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o'rni beqiyos. Psixologik xizmat faoliyati o'quvchilar aqliy faoliyat taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini diagnostika qilishga, ta'lim-tarbiyasidagi buzilishlarning psixologik sabablarni aniqlashgagina qaratilmasdan, balki bunday buzilishlarni yo'qotish va oldini olishga qaratiladi. Bunday psixologning aniqlagan va to'plagan ma'lumotlari o'quvchilarni korreksiya qilishda faol ishtirok etish zarurligi kelib chiqadi.

Shunday qilib, Barkamol yetuk kadrlarni tayyorlashda maktab amaliyotchi psixologining zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklatilganligini guvohi bo'ldik, va bu ma'suliyatli kasbning vazifalari ih mazmuni va uslublarini yaqinda

tanishib, o`rganib chiqishga harakat qildik, hamda o`z oldimizga maqsad qilib oldik.

Tadqiqot maqsadi: umumiy o`rta ta`lim maktablarida amaliyotchi psixologning vazifalari, ish mazmuni, uslublari bilan tanishish va o`rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Myammoga taalluqli adabiyotlarni o`rganish.
2. Myammoni nazariy jihatdan tahlil qilish.
3. Amaliyotchi psixolog xizmatini tashkil qilish bo`yicha hujjatlarni o`rganish.
4. Maktab amaliyotchi psixologining ish mazmuni mukamal o`rganish va uning mohiyatini yoritib berish.

Tadqiqot ob`yekt: umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi amaliyotchi psixologi.

Tadqiqot predmeti: amaliy psixologlarning ish vazifalari va ish mazmuni.

Ilmiy faraz:

- 1..
- 2..
- 3.

Tadqiqotning metodologik asosini Respublika Prezidenti I.A.Karimovning yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fikrlari, O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqot oldiga qo`yilgan vazifalarni hal qilish uchun qo`yidagi metodlardan foydalandik”

1. Kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Test

Tadqiqotning nazariy ahamiyati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o`yin faoliyati bilan bog`liq jihatlari ochib berildi va ular shaxsini shakllantirishga yordam beruvchi o`yinlar ko`rsatib berildi.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 10 paragraf, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Malakaviy ishning mazmuni bet hajmda yozma matnda bayon qilingan va **52** nomdagi adabiyotlar ro`yxati mujassamlashgan.

1. BOB. TA`LIM SOHASIGA PSIXOLOGIK XIZMATNING KIRIB KELISHI

1.1.Chet-el va O`zbekiston ta`lim tizimiga psixologik xizmatning tadbiiq etlishi .

Ta`lim sohasini islox qilishning asosiy omillaridan biri insoniyat manfaati va ta`limning ustivorligiddir. Ta`limga psixologik xizmatning kirib kelishi uning paydo bo`lishi bilan bog`liqdir.

Xorij mamalakatlarida psixologik xizmat xususan, AQSh da 1800 yildan boshlab rivojlana boshladi. AQShning birinchi amaliyotchi psixologlari o`z-o`zini

tarbiyalsh muammosini o`rgangan eksperimental psixologlar edi. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot “koeffisientini” aniqlash keng tarqalib, keyinchalik Gaydens xizmatining rivojlanishiga olib keldi.

Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Bunne bo`lib, bu sohada 1894 yildan boshlab ish boshlagan. 1900 yilda Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etildi. 1970-yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etadi. Bunday guruhlar esa maktab psixologiyasi bo`yicha bir mutaxassisni o`z ichiga oladi. Bunday brigada 800 –1000 ta o`quvchiga xizmat qiladi. Bular bir maktabda joylashib, bir nechta maktabga xizmat qilishi mumkin.

Ko`pchilik Sharqiy Yevropa mamlakatlaridan maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik psixologik markazlar shaklida tashkil etilgan. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni – sog`lom shaxsning o`shini ta`minlash shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish va kasb tanlash muammosidir.

Birinchi bo`lib 1975 yilda Estoniyada psixologik xizmat atshkil etildi. Uning rahbari X.I.Liyets, Yu.L.Serd bo`lib tarbiyasi qiyin o`smirlar uchun ish olib bordilar.

Rossiyada I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga juda katta hissa qo`shgan. Ushbu mavzuda doktorlik dissertasiyani yoqlagan va bir qancha psixologik xizmat asarlari muallifidir.

Har bir davlatning ijtimoiy taraqqiyoti o`sha davlat hududida yashovchi fuqarolarning ijodiy o`shishi va axloqiy potensialiga bog`liq bo`ladi. Bu sifatlarni shaklanishi odamlarining maktabgacha ta`lim muassalarida tarbiyalanish va maktabda o`qish yillariga to`g`ri keladi. Chunki bu yillar inson shaxsi va uning idevidual xususiyatlari bo`lmish temperamenti xarakter qobiliyatlari qiziqishlari va hakoazolarning shakllanishi uchun eng qulay davr hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ham ilgariroq ham xalq ta`limi tizimiga qarashli maktabgacha ta`lim muassalari,

maktab, kollej, letsey va h.k.larda ta`lim tarbiya jarayonlarda sezilarli qiyinchilikga duch kelinar edi. Ayniqsa keyingi davrlarda bu muammolarda keskin tus olayotganligi sir emas.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkini psixolog xizmatiga muxtojlik bugun yoki kecha paydo bo`lmasdan , ayrim mamlakatlarda allaqachonlar hayotga tadbiiq etilib yaxshigina rivojlanmoqda.

Jumladan, bu kasb AQShda o`tgan XX asrning 1960 yillarida paydo bo`lib hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy tarmoq hisoblanadi. AQShda 1980 yillarda maktab psixologlarining Milliy assotsiyasi tuzilgan edi. AQShda maktab psixologining markaziy vazifalarida biri o`quvchilarning aqliy rivojlanish sifatini test savollari orqali baholash hisoblanadi.

AQShda psixologik xizmat uning kelajagi rivojlanish haqidagi ma`lumotlar K.R.Reynolds , T.B.Gudkin va boshqalarning 1984 yil Nyu-yorkda chop etilgan kitobida yoritilgan [10] (“ Sehol Psychology: essintial of theory and Practice”).

Bolalarning aqliy qobiliyatlarni o`rganish hozirgi kunda nafaqat AQSh da balki, qator rivojlangan mamlakatlarda ham etiborlidir. Psixolog B.L.Vulfson Fransiyaning hozirgi vaqtdagi pedogogik muammolarini taxlil qilib yaqin vaqtlargacha test uslubi AQSH va Ahgiliyadagidek keng tarqalmagan degan fikrni aytadi . Fransiya maktablarida bolaning aqliy faoliyatlari va qobilyatlarini testlar orqali aniqlash o`tgan asrning 70-yillari boshidan boshlaganligi ma`lum. Lekin hozirgi vaqtda odamning faqatgina aqliy faoliyati bilan emas balki shaxs bo`lib shakllanishi jarayonida uni har tamonlama baholashga to`g`ri keladi. Ingliz psixologlaridan B.Saymon, EXeysserman va boshqalar bolaning ruxiy holatini o`lchovchi rasmiy testlarga chuqur e`tiroz bildirib, bu testlar bolaning emotsional (hissiy) tomonlarini hisobga olmaganligi uning asosiy kamchiligidir deb hisoblaydilar. Chunki testda bola xissiyotini aniqlash mumkin emas. Hissiylik bola xulqining asosi bo`lib hisoblaydi.

Ko'pchilik mutaxassislar test psixolog xizmatining komponent-laridan biri deb hisoblaydilar. Hayot ham shuni ko'rsatmoqda.

Maktablarda psixolog xizmatini tashkil qilish haqidagi anchagina tajribalar Sharqiy Yevropa mamlakatlarida, yani Chexoslovakiya, Vengriya, Yugoslaviya, Polsha, Bulgariyada to'plangan.

Bu mamlakatlarning ko'pchligida tuman va viloyatlarida markazlashtirilgan pedogogika- psixologiya yoki maslahat markazlari tashkil eetilgan bo'lib, ular xalq ta'limi muassalariga yordam beradi. Chexoslavakiya va Vengriyada psixologik xizmatning asosiy mazmuni sog'lom shaxsni shakllantirish, shaxsni rivojlanishdagi ayrim kamchiliklarga o'z vaqtida e'tibor berib, tuzatib borish, kasb tanlash masasalari psixodiagnostika, bolani qanday tibdagi maktabga yoki bog'chaga berish kabi muammolarni hal qilish, kasbga yo'naltirish, psixoterapiyaning turli formalari (logopediya, psixonevrologiya v.h.k.) usullarini qo'llashdan iborat.

Bu mamlakatlarda psixologik konsultatsiyalar orqali ota-onalarga amaliy yordam ham beriladi, ya'ni boladagi o'qishga qiziqmaslik, maktabdan qo'rqish, o'g'irlik yolg'onchilik, bolani uydan yoki maktabdan qochib ketishi bola xulqidagi tasodifiy o'zgarishlar, nutqning buzilishi so'zlashda duduqlanish, bolaning ota-onasi ustidan shikoyati, doimiy bosh og'rig'i uyqusizlik, sababsiz tez toliqish v.h.k.lar sababi ilmiy jihatdan tushuntirib beriladi va ota-onalarda bolalari uchun hadiksirashlarini yo'qotishga harakat qilinadi.

O'zbekistonda psixologik xizmatning tadbiiq etilishi.

1989-yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmasligi sabab Nizomiy nomli T.D.P.U.da amaliyotchi psixologloglar tayyorlash fakulteti ochildi. O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida E.G'oziyev, M.G.Davletshen, G.B.Shoumarov, V. M. Karimova, Sh. R.Baratov, E.H.Sattarov, F.S.Ismagilova, Z.T.Nizamova, H.S.Safoyev, F.L.Xaydarov, B.R.Qodirov, S.X.Jalilova, va boshqalar fan rivojida o'z hissasini qo'shgan va hozirga qadar o'z izlanishlarini davom ettirmoqda. 1998 yilda Sh.R. Baratov "Ta'lim tizimida va ishlab

chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari” mavzusida ish olib bordi va doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

Hozirgi davr bosqichida psixologik xizmatning ikki yo`nalishi : dolzarb va kelajak yo`nalishlari mavjud.

Dolzarb yo`nalish – bu o`quvchilar ta`lim-tarbiyasidagi qiyinchiliklar, ular xulq-atvoridagi , muloqotidagi va shaxsi shakllanishidagi buzulishlar bilan bog`liq muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Kelajak yo`nalishi - har bir bola indevidualligini rivojlantirishga jamiyatda yartuvchanlik hayotiga psixologik tayyorgarlikni shakllantirishga qaratilgan. Psixologik xizmat maktabda o`quv tarbiya mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi. Psixologik xizmat 3 ta asosiy bo`limdan tuzilgan:

1. Aniq o`quv muassasida ishlaydigan bolalar amaliy psixologi .
2. Tuman xalq ta`limi qoshidagi tashxis markazi.
3. Respublika kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi.

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qiziqishlariga tayanadi. Amaliyotchi psixolog o`z faoliyati pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqalarda amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o`z faoliyatida tibbiy difiktologik va boshqa xizmat turlari bilan bola tarbiyasida yordam ko`rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqin aloqada ish olib boradilar .

O`rta maxsus kasb-hunar tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi – shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti to`laqonli psixologik taraqqiyotni ta`minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta`sir otkazish ob`yekti maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab o`quvchilari, maxsus o`quv yurti, oliy maktab, kollej talabalari, ota-onalari bo`lib hisoblanadi. Ularni yoki guruhshaklda tadqiq qilishi mumkin.

1.2. Xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat

Inson faoliyati meyorda boshqarilishi maishiy, huquqiy, tibbiy texnik, bank va boshqa shu tarzda xizmat turlariga zarurat sezadi. Shular singari insonning o'zini-o'zi boshqarishi, o'zini-o'zi nazorat etishini taminlashda psixologik xizmat katta ahamiyatga ega.

Psixologik xizmat masalalari ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga tibbiyotda kriminalistikada, beznisda, reklama va axborotlar tarqatishda, sportda va ta'lim tizimiga jadallik bilan kirib bormoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimiga psixologik xizmat keng joriy etilayotgan soxa sifatida qarash mumkin. Ta'lim tizimiga psixologik xizmatni joriy etish ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi shaxsini shakllanishini nazorat etish xulq-atvoridagi og'ishlarni oldini olish, o'quvchilarning o'lashtirishi va aqliy saviyasini baxolash, iqtidorli va aqliy taraqiyotidan ortda qolayotgan o'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatish, pedagogik jamoada psixologik muxitni shakllantirish va shu singari bir qator ishlarni yo'lga qo'yishi bilan haraktirlanadi.

Shu bois bu soha eng izchil yo'nalish sifatida psixiologik tashxisni yo'lga qo'yish kerak bo'ladi.

Psixologik tashxis ta'lim muassasalaridagi mutaxassisning ish faoliyatida mo'ljal olishga va psixologik xizmatning boshqa turlari bo'yicha chora tadbirlarni belgilashga yordam beradi. Buning uchun psixologik tashxisni to'g'ri tashkil eta olish kerak.

Psixologik tashxis yoki psixologik testlarni joriy etish bir asrdan ko'proq tarixiy davrga ega.

Chunki, ilk psixologik tashxis vositalari ham ta'lim muammolariga qaratilganligi bois (fransuz psixologlari Beni Simonning "aqliy yoshni aniqlash")

shkalasi) u insonning tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida yangidan yangi tashxis vositalariga zarurat sezmoqda.

Ta'limda psixologik tashxisni joriy etishning murakkab va nozik tomonlari bor. Hozirgi kunda ta'lim tizimida psixologik xizmatni yo'lga qo'yishda amaliyotchi psixologlar tayyorlashga aloxida etibor berilmoqda.

Ularning mutaxassis sifatida tayyorgarlik darajasi psixologik xizmatni, xususan, psixologik tashxisni tashkil etishga yetarlicha tasir ko'rsatadi.

Talim muassasalarida zexn testlar(entiliktual testlar) dan foydalanish eng nozik masalalardan biri sanaladi. Bunday testlardan foydalanish mavjud variantlarni to'g'ridan to'g'ri tadbiiq etish emas, ularning qo'yilgan maqsadni baxolashga yordam berishini tekshirish lozim va so'ngra qo'llash maqsadga muvofiq.

Aynan o'quvchining aqliy saloxuyatini yoki o'qituvchini shaxsiy xususiyatlarini tashxis etish zamirida katta mano bor. Ushbu ma'no o'zining xaqiqiy timsolini hosil qila olishi psixologik xizmat ko'rsatayotgan mutaxassisning salohiyatiga bog'liq bo'ladi.

Qisman xato ham inson taqdiri va qadr-qimmatiga zarba berishi mumkin. Biz shu bois ta'lim tizimida psixologik tashxisni tashkil etishda bir qator holatlarni inobatga olish kerak deb hisoblaymiz.

Shaxsni kuzatish, o'rganish, u bilan Psixologik tuzatish, maslaxat ishlarini olib borish, uning u yoki bu kasb koriga yaroqlilik jihatlarini maxsus o'rganis, shaxsni har tomonlama rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash vashu kabi tadqiqot natijalariga asoslangan holda manfaatdor shaxslarga tegishli tavsiyalar berish, hozirgi zamon amaliy psixalogiyasi zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalardan hisoblanadi . Bu borada dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotchi psixologlari faoliyatida o'rganishga, o'zlashtirishga arzigulik tajribalar to'plangan.

Agar mazkur masala tarixiga nazar solgudek bo`lsak o`tmish ajdodlarimiz tomonidan bu kabi ishlar amalga oshirilganligining shoxidi bo`lamiz . Masalan, sharqning buyuk mutafakkirlardan biri Nizomulmuluk o`zining „Siyosatnoma“ (yoki „Siyar ul- muluk“) asarining „Xos va avomni qabul qilish haqida“ deb nomlangan faslida, shaxsning kasbiy shakllanishi, bu borada Somoniylar davrida amalga oshirilgan tadbirlar haqida yozadi. Uning takidlashicha bir shaxsning xizmatga qo`yish uchun 7-8 yil davomida uni o`rganish, tayyorlash ishlari olib borilgan. Bunday „sinov“lardan muvaffaqiyatli saralanib, „ulug` ishlar qo`lidan keladigan bo`lganidan so`ng“ u tegishli raxbarlik yoki boshqa ma`suliyatli lavozimlarga qo`yilgan.

Shuningdek, Hamidjon Homidiyning „Ko`xna sharq darg`alari“ nomli kitobiga yozilishicha, „Unsuriy, Sulton Mahmud davrida xatto Abu Rayxon Beruniydan –da yuqoriroq mavqega ega olim bo`lgan...Sulton Mahmud saroyidagi adabiy va ilmiy doiraga dahil bo`lish orzusida yurgan har bir ijodkorni imtihon qilish vazifasi Unsuriyga topshirilgan. Unsuriyning sinovidan o`tib, uning fatvosini olgan qalam sohibigina g`azna ma`naviy muhitiga qabul qilingan“.

Bulardan ko`rinib turibdiki, hozirgi vaqtda psixologik tashxis, psixologik xizmat markazlari, amaliyotchi psixologlar, psixodiagnostiklar tomonidan olib borilayotgan ishlar o`sha davrlarda ham o`tmish mutafakkirlarimiz tomonidan yuqori savyada amalga oshirilib kelingan. Bu ishlarga jiddiy e`tibor berilib, ular o`z davrining eng yuqori mavqiyli mutaxassislariga ishonilgan. Buning provard natijasida o`laroq tarixda „Sharqning ilk uyg`onish davri“ deb nom olgan, VIII asrning XII asrlar, ya`ni Samoniylar davridan to G`aznaviylar davrigacha bo`lgan davrda Bag`dodda ”Bayt ul hikmat“ yoki „Mamun akademiyasi“ kabi yirik ilmiy markazlar tashkil qilingan. Bu davrda O`rta Osiyo xalqlarining madiniyati, ilm fani badiiy adabiyoti yuksak darajaga ko`tarildi.

Eski turkiy (o`zbek) adabiy tili ilm -fan tili, badiiy ijod vastasiga aylandi. Al-Xorazmiy, Yazid Tabariy, Abu mahmud Xo`jandiy, Abu Rayxon Beruniy, Abulqosim Hasan binni Axmad Unsuriy, Ja`far Narshaxiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu

Nasr Farobiy, Axmad Yassaviy, Axmad Zamzaxshariy, Rudakiy, Umar Xayyom, Nosir Xisrov, Abulqosim Firdafsiy, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yugnakiy, Farididdin Ator kabi mutafakkirlar, Alptegin, Sabuktegin, Sulton Mahmud G`aznaviy, Nizomulmulk kabi davlat arboblari xuddi shu davrda yetishib, olamshumul obruy va shuhratga ega bo`ldilar.

Mamlakatning ravnaqi, ilm-fan, siyosatning rivojlanishi, el-yurt farovonligining oshishida bunday olamshumul yutuqlarga erishishning asosiy omili bizning nazarimizda o`sha davrlarda inson omiliga alohida e`tibor berilganligi, xalq xo`jaligining barcha yo`nalishlarida hodimlar-ni, raxbarlarni tanlab olishda, shaxsning individual psixologik imkoniyatlarini hisobga oluvchi, hozirgi zamon tili bilan aytganda Psixologik xizmat, psixodiagnostik tadbirlarning amalga oshirilganligiga sababdir.

Yuqorida keltirib o`tilganlar bizning hududimizda amaliy psixologiyaning yuzaga kelishi va rivojlanishi uzoq o`tmishga egaligi, bu borada o`tmish mutafakkirlarimiz ulkan ma`naviy meros qoldirganligi, ular tajribalarini o`rganish, o`z faoliyatimizda ulkan ma`naviy meros qoldirganligi, ular tajribalarini o`rganish, o`z faoliyatimizda ulardan foydalanish bugungi kunda ham katta ahamiyatga egaligini ko`rsatadi.

Bugungi kunda respublikamizda yuqorida keltirib o`tilgani kabi holatlarni yana tiklash, respublikamiz xalq xujjatlarining ko`plab soxalarida Psixologik xizmat

Joriy etish, amaliy psixalogiya yutuqlarini xalqimizning kundalik hayotiga chuqurroq kirib borishi uchun barcha shart –sharoitlar mavjud.

Ayniqsa mamlakatimiz xalq xo`jaligiga bo`lajak hodimlarni tayyorlashda bosh bo`g`in bo`lmish xalq ta`limi tizimida psixologik amaliyotning yo`lga qo`yilganligi, Xalq ta`limi vazirligi tasarrufida „O`quvchilarni kasb- hunarga yo`naltirish va psixologik - pedagogik Respublika tashhis markazi“ ning tashkil etilganligi va barcha viloyatlarda uning viloyat, tuman bo`limlarining ishlashi,

joylarda „Psixologik xizmat“ markazlarining faoliyat ko`rsatishi, bu muassasalarda xizmat qilish uchun respublikamizning yetakchi ilmiy dargoxlarida: M.Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti va viloyatlardagi bir qator oliy o`quv yurtlarida amaliyotchi psixolog mutaxassislarining tayorlanayotganligi bunga yaqqol misol. Shuningdek, respublikamizda o`zining ilmiy psixologik salohiyatiga ko`ra chet –el amaliyotchi psixologlar bilan baxslasha oladigan, ilg`or chet-el psixologik markazlarida amaliyotlarini o`tagan psixolog mutaxassis, olimlarimizning mavjudligi, ular o`z faoliyatlarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishlari uchun yetarlicha ilmiy uslubiy bazaga egaligi kabilar, respublikamizda amaliy psixologiyani rivojlantirish istiqbolli ekanligidan dalolat beradi.

Inson ruxiyati, unga ta`sir kursatishi, boshqarish usullarini bilmay turib, ijtimoiy hayotni boshqarib bo`lmaydi. Xozirgi hayotimiz shunday bosqichdagi, ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq boshqarishni hayotda katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan umumpsixologik savodxonlik kun tartibiga qo`yilishi tabiiy. Chunki psixologik savotsizlik-bu avvalo o`zgalar bilan tug`ri muloqatga kirisha olmaslik, uz-uzini va ijodiy jarayonlarni boshqara olmaslik, doimiy stress (ruxiy tanglik)ni keltirik chiqaradi. Shuning uchun xam amaliy psixologlar, avvalo keng axoli o`rtasida psixologik savodxonlik kabi savodli ishni amalga oshirishni zu zimmalariga olishlari zarur.

Ma`lumki, shaxsning ijtimoiylashuvi asosan maktab yillariga to`gri keladi. Xalq ta`limi oldiga qo`yiladigan asosiy vazifalardan biri bolaning komoloti uchun barcha shart –sharoitlarni yaratish, uning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta`lim va tarbiyaning eng maqbul shakllarini joriy etishdir.

Bu muammolarni hal etmasdan turib maktab hayotini insonparvarlashtirish, demokratiyalash ishini amalga oshirib bo`lmaydi.

Maktab kelajagimiz taqdirini belgilaydi. Shu o`rinda fransuz mutafakkiri M.Dantonning „ Xalq uchun nondan so`ng maktabdir“ degan fikrni eslashimiz joizdir. Demak, maktab yosh avlodni shakllantiruvchi makon ekan, uni eng avvalo mustahkam qurmog`imiz zarur, shundagina biz kelajakni qo`ldan chiqarmasligimiz mumkin.

Psixologik xizmat xalq ta`limi tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta`sir o`tkazish ob`yektini maktab o`quvchilari, oqituvchilar, ota-onalar bo`lib hisoblanadi. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda, har qaysi shaxs pedagogik, o`quvchi, ota -ona manfaati va uning har tamonlama uyg`un kelib chiqishini o`rgangan holda yondashadi. Psixologik xizmat mutaxassislari o`z faoliyatini tibbiyot xodimlari defektolog xizmati, muxofaza tashkilotlari, muayyan komissiyalar, balog`atga yetmagan o`smirlar, ota -onalar, oila a`zolari, mahalla qo`mitasi, ishlab chiqarish jamoasi birgalikda amalga oshiradi.

Amaliyotchi psixolog faoliyati maktabni hozirgi zamon psixologiyasi fani yutuqlari bilan ilmiy-uslubiy ta`minlashga , insonning shaxsiy va intellektual jihatdan rivojlanishini diagnostika qilishga eng muhimi mavjud kamchilik va buzilishlarini oldini olishga qaratilgan yo`nalish bo`lishi kerak.

Xalq ta`limi tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi shaxsning o`shishini ta`minlash psixologik taraqqiyotini ta`minlovchi yuqori darajadagi shart-sharoitlar yaratish, o`rta maktabdagi o`quv tarbiya ishlarini yaxshilash, bu sohada pedagogik jamoaga ilmiy-uslubiy jihatdan yordam ko`rsatishdan iboratdir.

1.3.Psixologik xizmat to`g`risida Nizom

Ma`lumki, barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta`limi tizimining muvafaqiyati ushbu tizimda psixologik xizmatning har

tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tadbiriq etilishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'pgina maorif xodimlarining diqqat e'tiborini o'ziga qaratmoqda.

Porloq kelajagimiz poydevorini,albatta yuksak ijtimoiy bilimlar majmuasi bo'lmish ta'lim tarbiyasiz va uning ravnaqisiz ko'rib bo'lmaydi.

Ta'limning rivojlanishi barcha fanlar kabi pedagogika va psixalogiya fanlari oldiga ham qator vazifalarni qo'ymoqdaki, bu vazifalarni bajarish jarayoni va imkoniyatlari O'zbekiston Xalq Ta'limi Vaziri J.G.Yo'ldoshevning qator ma'ruzalarida o'z ifodasini topgan. Binobarin, ta'lim muammolari insonning bilish, shaxsning ijtimoiy jarayonlarni anglab etishi bilan chambarchas bog'liqdir.Bunday sharoitda pedagogika va psixalogiya fani shaxsning tub qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, uni yanada faollashtirish imkoniyatini beradi. "Inson insoniyatning olamidir" "Insonning rivojlanishi uning mavjudligidir"kabi tushunchalar, tafakur amaliyotining o'zaro bog'liqligi, shaxsning olg'a qarab intilishini ta'minlovchi, bunyodkorlik va taraqqiyotning yo'naltiruvchi, ta'limning son va sifat ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi Pedagogika va Pedagogik psixalogiya fanlari metodologiyasining falsafiy asosidir.

Psixolog o'zining inson xulq atvori va psixik faoliyati, psixik taraqqiyotning yosh qonuniyatlari xaqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o'quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlariga, o'quv – tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat maktabda o'quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

O`zbekistonda psixologik xizmat haqida nizom 1996-yil Xalq ta`limi Vaziri J.G` . Yo`ldashev tomonidan tasdiqlangan. Nizomga 2001-yil o`zgartirishlar kiritilgan.

Nizom 6 bo`limdan iborat :

1. Umumiy qoidalar
2. Psixoprofilakti ishlar
3. Psixodiagnostik ishlar
4. Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar
5. Psixologning maslahat berish ishlari
6. Psixologik xizmat xodimlarning ma`suliyati aks etgan

O`zbekiston Respublikasi xalq talim tizimida

Psixologik xizmat to`g`risidagi

NIZOM

Umumiy qoidalar

1. Psixologik xizmat xalq ta`limi tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
2. Xalq ta`limi tizimidagi psixologik xizmat Respublikadagi yaxlit psixologik xizmatning eng muhim jabhasi hisoblanadi
3. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda har bir shaxs manfaati va uning har tomonlama garmonik rivojlanishdagi kelib chiqqan holda yondashadi.
4. Psixologik xizmat mutaxassislari o`z faoliyatlarini tibbiyot xodimlari, defektologik xizmat, muhofaza qilish tashkilotlari muayyan kommissiyalar, balog`atga yetmagan o`smirlar inspeksiyasi, ota-onalar qo`mitasi, mahalla, ishlab chiqarish jamoslari jamoatchlik bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar.

Ular bilan munosabat tenglik pozitsiyalarni o`zaro boyitish asosida quriladi.

5. Psixologik xizmat ko`rsatish faoliyati maktabni hozirgi zamon psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy –uslubiy ta`minlashga insonning shaxsiy va

intellektualjixatdan rivojlanishini diagnostika qilishga, ta`lim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muhim mavjud kamchilik va buzulishlarning oldini olishga yo`naltirilgan bo`lishi kerak.

6. Xalq ta`limi tizimidagi psixologlarning faoliyati psixologik konsultatsiya va muomilaning ijtimoiy psixologik faol usullari, psixokorreksiya , psixodiagnostika, ijtimoiy pedagogik bolalar psixologiyasi ixtisosga ega bo`lgan mutaxassislar tomonida amalga oshiriladi.

7. Amaliy psixolog faoliyatiga rahbarlik mutaxassisligi sohasi bo`yicha amalga oshirish nazarda tutiladi.

Xalq ta`limi tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi shaxsning har tomonlama garmonik kamolot va to`laqonli psixologik taraqqiyotni ta`minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Psixologik xizmat tadqiqot va ta`sir o`tkazish ob`yektini maktabgacha yoshdagi bolalar o`quvchilar, o`qituvchilar, ota- onalar hisoblanadi.

Ularni alohida yoki guruh holda tadqiq qilishi mumkin. Psixologik xizmat mazmuni quyidagilarda o`z aksini topadi:

- a) psixoprofilaktika
- b) psixologik ma`rifat
- c) psixodiagnostika
- d) psixik rivojlantirish va psixokorreksiya
- e) psixologik konsultatsiya

Psixologik xizmat usullari turli- tuman bo`lishi mumkin:

- a) ma`ruzalar turkumi va trening mashg`ulotlarini o`tkazish;
- b) ilmiy- ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish;
- c) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar uyushtirish;
- d) psixodiagnostik tadqiqotlar o`tkazish, metodika ishlab chiqish;
- e) psixologik konsultatsiya o`tkazish;

- f) psixologik konsuliumlar o`tkazish;
- g) ta`lim va tarbiya beruvchi dasturdalardan foydalanib, psixodramma, psixokarreksion treninglarni amalga oshirish;
- h) psixologik tadqiqot ob`yektining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o`quv dasturi, o`quv tarbiya ish rejimini tahlil qilish va boshqarishdir.

Psixologik xizmat xodimlarining mas`uliyati.

Mazkur xizmat xodimi quydagilar oldida mas`uldirlar.

1. Xalq talimi tizimida faoliyat ko`rsatadegan psixolog qo`yilgan diagnozning to`g`riligiga, qo`llanilgan diagnostik korreksion metodlarning omilkorligiga, tavfsiyalarning ilmiy jihatdan asoslanganligiga javobgardirlar.
2. Psixolog tadqiqot va kuzatish ishlarining qaydnomasi, xizmat xujjatlarining saqlanishiga javobgar shaxs hisoblanadi, ularning muayyan qoidaga binoan ma`lum tartibda rasmiylashtirish va asrashi shart.

Amaliyotchi psixologning faoliyatidagi vazifalar quydagilarni o`z ichiga oladi.

1. Psixolog o`z faoliyatini O`zbekiston Respublikasi hukumatining xalq talimi sohasi bo`yicha qabul qilingan narmativ va instruktiv hujatlariga amal qilgan holda amalga oshirish shart.
2. Oliy o`quv yurtining psixologiya sohasini bitirganligini yoki amaliyotchi psixologlar tayorlovchi qisqa muddatli (qo`shimcha mutahassislik beruvchi) maxsus kurslarni (kamida 1000 soatlik) bitirib , psixolog mutaxassisligini olganligini tasdiqlovchi maxsus xujjatga ega bo`lishi kerak.
3. Psixologiya fanining eng so`nngi yutuqlardan xabardor bo`lishi, bolalar psixologiyasi, pedogogik psixologiyani , aamaliy psixologiyani chuqur bilish shart. Diagnostik , psixoprofilaktik , rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlarining hozirgi zamon ilmiy asoslangan metodlari bilan qurollanishi, xalq ta`lim tizimida doimo o`z malakasini oshirib borishi kerak.

4. Muomolarni muxokama qilishda va asosidan qaror chiqarishdan kasbiy vakolat chegasidan aslo chiqmaslik kerak.
5. Shu sohaning mas`ul mutaxasislari tomonidan ishlab chiqarilgan qoidalarga rioya qilgan holda ko`rsatmalar va tavsiyalarni qatiy bajarish shart.
6. Barcha psixologik masalalarni hal qilishda o`quvchi manfaatidan, ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqishi zarur.
7. Olingan ma`lumotlar sinaluvchining shaxsiyatiga zarar keltirmasligi, ularni qurshab turgan muhit a`zolari tahlikaga tushmasliklari uchun diagnostik va korreksion faoliyat natijalarini sir saqlash.
8. Ma`muriyat o`qituvchilar ota-onalar bilan uzviy aloqada faoliyat ko`rsatish.
9. Bog`chada, maktabda o`tkaziladigan tadqiqot maqsadi moxiyati, vazifasi va natijalari yuzasidan pedogogik kengash, ma`muriyatga ma`lumot berish maqsadga muvofiq.
10. Ma`muriyatga, pedogogik Kengashga o`quvchilarga individual yondashishni taminlovchi imkoniyat, ularni xal qilishning psixologik shartlari, ta`lim-tarbiyadagi nuqsonlarning oldini olishning omillari, yo`llari yuzasidan zarur yordam ko`rsatish.
11. Bolalar o`quvchilarning yakkaxol muamolarini xal qilishda yordam berish.
12. Ota-onalarni tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishda maslaxatlar berish, muayyan xolatlarini birgalikda taxlil qilish va amaliy tavsiyalar berish.
13. Ota-onalarga farzandlarining tibbiy yordamga muxtojligi yoki boshqa muassasalarga murojat qilish lozim ekanligini yuksak pedogogik oddob bilan tushintirish, berilayotgan ko`rsatmalarga ularni ishontirish.
14. Barcha qoidalarga va tasdiqlangan xujjatlarga rioya qilgan holda o`tkaziladigan barcha ishlarni qayd qilish va belgilash.

15. O`z faoliyatini natijalari yuzasidan yuqori tashkilotlarga o`z muddatida axbarot berish, qabul qilingan hisobot shakillariga hech og`ishmasdan rioya qilish.
16. Barcha, maktablarda maxsus talablarga javob beradigan jixolangan psixologik kabinet bo`lishi maqsadga muvofiqdir .
17. Amaliy psixologlar seminarlari, anjumanlarida faol ishtirok etish.
18. O`zbekiston Respublikasi Mafkurasi Konstitutsiyasiga ijtimoiy etnopsixologik Axloq-odob qoidalariga zid bo`lgan tekshirishlar o`tkazmaslik.
19. Bolalar, o`quvchilarni tanlash komissiyasida ishtirok etish.
20. Ijtimoiy psixologik holatlarni o`rganishda mahalliy hokimiyatga yordam berish va ommaviy barqarorlashtirishda oldingi safda bo`lish.

AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING HUQUQLARI

Amaliyotchi psixologlarning huquqlari quyidagilar:

1. Bog`cha , maktablarning ta`lim – tarbiya shart-sharoitlarini hisobga olib, faoliyat uchun eng muhim yo`nalishni tanlaydi.
2. Pedagogik kengash, pedagogik konseliumlarda ishtirok etadi.
3. Ta`lim – tarbiya jarayonida bolalar o`quvchilar xulqi o`quv faoliyati xususiyatini kuzatish maqsadida dars sinfdan tashqari mashg`ulotlarda qatnashadi.
4. Murabbiylar, ota- onalar yig`ilishida o`qituvchilar , metodik birlashmalari majlisda ishtirok etadi.
5. Bog`cha maktablarning hujjatlari bilan tanishadi va tahlil qiladi.
6. Muayyan davr oralig`ida amaliy faoliyatning yetakchi yo`nalishi yuzasidan turli ishlarni navbat bilan amalga oshiradi. Ularga ma`lum metodlar shakl tanlaydi, bolalar, o`quvchilar , ota-onalar, o`qituvchilar ishining yaqqol vazifalarini mustaqil belgilaydi.
7. Ilmiy izlanishni yo`lga qo`yish maqsadida bog`chada guruhiiy va individual psixologik tekshiruvlar va tajribalar o`tkazadi.

8. Pedagogik- psixologik matbuotda o`z tajribalarini umumlashtirib maqolalar, xabarlar e`lon qiladi.
9. Pedagogik- psixologik bilimlarni targ`ibot qilish ishlarini olib boradi.
10. Psixologik ixtisos malumotdan kelib chiqqan holda o`quv va faultativ tarzda 0,5 pedagogik ish lash imkoniga ega.
11. Kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli ado etish uchun yuqori tashkilotlardan ma`muriyatdan zarur shart-sharoitlar yaratish talab qilinadi.
12. Nizom bandlariga uning printsiplariga zid bo`lgan ma`muriyat topshirig`ini bajarmaydi.
13. o`quvchilarni kasb tanlashga oid muammolari hal qilish maqsadida kasbga yo`naltirish markazlarga murojat qiladi.
14. ma`muriyat orqali u yoki bu tashkilotga o`quvchilarga yordam berish zaruriyati to`g`risida malumotnoma yuboradi.
15. Ota –onalarga zaruriyat tug`ilganda oilaviy turmush psixologiyasiga oid konsultativ xizmat xonalarini tavsiya qiladi.
16. Tibbiyot va defektologik muassalarga rasmiy talablar yuboradi.
17. Tibbiy pedagogik- psixologik konsultativ ishlarda ishtirok etadi, balog`atga yetmagan o`smirlar komissiyasi ishida qatnashadi, bola taqdiri hal qilinayotgan tashkilotlar bilan aloqa bog`laydi. Umuman psixolog yordamchi ovoz berish huquqiga ega xolos. Agar qabul qilingan qarorlarga e`tirozbildirilsa u holda o`z fikrini bildirish uchun yuqori tashkilotlarga murojat qiladi.
18. Psixologik xizmatni ilmiy jihatdan ta`minlash maqsadida ilmiy- uslubiy markazlarga murojat qiladi.
19. Bog`cha maktab faoliyatini yaxshilash maqsadida mavjud muammolorani hal qilishni xalq ta`limi tashkilotlari oldiga qo`yadi.
20. Ilmiy-uslubiy markaz rahbarligida yangi diagnostik metodikalar ishlab chiqish, uslubiy tavsiyalar yozishda faol qatnashadi.
21. Amaliyotchi psixologlarni ish haqi Respublika xalq ta`limi vazirligi qoshida tashkil etilgan amaliyotchi psixologlarni atestasiya qilish komissiyasi qaroriga binoan toifa darajasida belgilanadi. Agar amaliyotchi psixolog psixologik fanlari

doktori, nomzodi maxsus psixologik ma'lumotga ega bo'lsa psixologlar atestatsiyadan o'tgunga qadar oylik maoshi I toifali o'qituvchi darajasida belgilanadi (haftalik ish soatlar 20 soatni tashkil qiladi).

22. Amaliyotchi psixologning mehnat ta'tili muddati barcha maktab o'qituvchilari bilan barobardir.

23. Oqituvchiga berilgan barcha imtiyozlar xalq talimi tizimida ishlovchi psixologlarga ham taluqlidir.

Maktab psixologi quyidagilarga rioya qilishi shart.

1. Maktab psixologi- pedagogik jamoaning, o'quvchilarning va ota-onalarning ishonchini qozongan hamda qozonishi shart.

2. Psixolog mijozning muamolarni sir saqlashi shart.

3. Psixolog mijozni ko'proq gapirtirishi o'zi esa tinglashi shart.

4. Mijozning so'zlarini diqqat bilan tinglashi shart.

5. Psixolog mijozning ko'ngliga yo'l topa olishi shart.

6. Mijozning ko'nglini ko'tara olishi, hamda unga hamdard bo'la olishi shart

7. Psixolog mmaktabdao'zini tutishi, hechqanday guruxlarga qo'shilmasligi shart.

8. Psixolog mijozning muamosini hal qilish jarayonida; o'zini mijozning o'rniga qo'yib ko'rishi juda ham zarur.

9. Maktab psixologi ochiq ko'ngil bo'lishi shart.

10. Psixolog hech qachon yolg'on gapirmasligi kerak.

11. Psixolog ma'suliyatli, ya'ni ma'suliyatni his qilishi kerak.

Maktabning psixik holatini yengillashtirish xonasining jihozlari

Maktabning psixik holatini yengillashtiruvchi xonasi quydagicha jixozlanishi shart;

Xona nim qorong`u bo`lishi va imkoni boricha maktab binosining shovqin kam bo`ladigan joyida bo`lishi kerak.

1. Xonada 2 ta gilam yoki palas bo`lishi kerak..
2. 2 ta akvarium bo`lishi kerak.
3. 8-10 ta tuvakda gul bo`lishi kerak.
4. Xonaning ikki joyida chiroq (svetilnik) bo`lishi kerak.
5. Xonada divan, 2 ta kreslo, jurnal stoli, uni ustida suniy gul bo`lishi kerak.
6. Xonani devorida 2 ta tabiat manzarasi tushirilgan rasm .
7. Donalar bisotidan bita –ikkita so`zlar .
8. Xona derazalariga qoramtir parda tutilgan bo`lishi kerak.

Psixolog o`tirib ishlaydigan

xona jixozlari

1. Seyf
2. Kitob jovoni.
3. Magnitafon ,radio , televizor.
4. Gul.
5. Bir nechta stend.
6. Stol va stullar.

Maktab psixologida bo`lishi kerak bo`lgan ish xujjatlari

1. Psixologik xizmat to`grisidagi nizom.
2. Yillik reja.
3. Yuqori tashkilotlardan qabul qilingan xujjatlar.
4. Psixolog tomonidan yuborilgan xujjatlar.
5. O`tkazilgan tadbirlar.
6. Psixodiagnostik metodikalar.
7. Hisobot.
8. Psixologning qabul daftari.
9. Tarbiyasi qiyin bolalar ro`yxati.

10. Tarbiyasi qiyin bolalarni kuzatish daftari.
11. O`zlashtirishi past o`quvchilarni kuzatish daftari.
12. O`quvchilar bilan suhbat daftari.
13. O`qituvchilar bilan suhbat daftari
14. Ota-onalar bilan ishlash daftari.
15. Shartnomalar.

Mazkur ishlar o`quvchilarni maktabda o`qitish davomida psixalogik-pedagogik jihatdan chuqurroq o`rganishga yo`naltirilgan bo`lib ularning induvidual xususiyatlarini ta`lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlashga mo`ljallangan psixologik xizmatning muxim xususiyatidir.

Amaliyotchi psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Psixologiyaning metodlari, testlar, nazariy bilimlar yordamida o`quvcha va oqituvchi shaxsining ayrim xususiyatlari ularning aqliy qobilayatlari, mahoratlari, kasbga moyilliklari, bilish jarayonlarining kechishlarini aniqlash-prognoz qilish.
2. Ta`lim-tarbiya o`zini o`zi tarbiyalash bo`yicha o`quvchilar, o`qituvchilar va ota –onalarga konsultatsiyalar berish .
3. Psixokorreksion ishlar: - o`qituvchi va o`quvchilar, o`quvchilar o`rtasida ota –onalar bilan bola o`rtasida muloqot jarayonida sodir bo`ladigan ziddiyatlarning oldini olish, sodir bo`lganda esa ularni yechishga yordam berish. Shaxsiy muammolarni birgalikda hal qilish.
4. Psixoprofilaktika – bolaning bilim olishida shaxs sifatita kamol topishida aqliy taraqqiyotida izdan chiqadigan har qanday holatning oldini olish.
5. Psixologik maorif ishlari- maktabning psixologik jamoasi o`quvchilarni, ota –onalarni psixologik bilimlarni egallashda jalb etish, o`quvchilar va ota –onalarning psixologik madaniyatini oshirish maqsadida turli ma`ruzalar uyushtirishdan iborat.
6. Maktabda psixologik xizmatni amaliyot tomonidan bir necha pedagogik sinflar tashkil etish bo`lib, uning maqsadi o`quvchilarni maktab bazasida bo`lg`usi kasbgalarga tayyorlash, muvoffaqiyatli o`qishdan keyin oliy o`quv yurtlariga

kirishni ta`minlashdir. Shu bilan birga psixolog o`quvchining taraqqiyotini kuzatib borishi kerak. Bunda quyidagilarga etibor berish zarur:

a) o`uvchilarni tashkilotchilik qobiliyatini aniqlash maqsadida o`sha o`quvchi birlashtirilgan sinfda turli tadbirlarni : sayohatlar, tarbiyaviy soatlar, shanbaliklar o`tkazish, kuzatish hamda bahon berish;

b) didaktik qobiliyatlarni bilish uchun o`quvchiga sinfdoshlari yoki quyi sinflarda ma`lum o`quv materialini tushuntirib berish, nazorat ishlarini o`tkazish, baholashni topshirish, ishni natijasiga qarab faoliyatni baholash;

c) kommunikativ qobiliyatni topish uchun o`quvchiga parallel sinflar

Maktab bilan birgalikda biror tadbir o`tkazishga kelishish sinfda o`tkaziladigan tadbirlarga ota –onalarni taklif qilishni tavsiya qilishni tekshirish mumkin. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning aktiv metodlari munozaralar suhbatlar, turli treninglar, o`yinlar shular jumlasidandir.

Ta`lim muassasasida psixologik tashxisni o`tkazish uchun amaliyotchi psixolog talablarga javob bershi lozim.

1. Mutaxassislik vakolatiga egaligi;
2. Psixologik tashxis o`tkazish tamoillaridan xabardor bo`lishi va ularga amal qilishi;
3. Psixologik tashxis vositalari bilan qurolanishi;
4. Psixologik tashxis vositalarini tadbiq etish, natijalarni qayta ishlash va psixologik sharxlash malakasiga ega bo`lish.
5. Psixologik tashxis natijalarini psixologik maslaxat va psixokorreksiyalash ishlarini uyg`unlashtirish malakasiga ega bo`lish.
6. Uzluksiz ravishda mutaxassislik malakasini oshirishga etibor qaratishi psixodiagnostika fani yutuqlaridan xabardor bo`lib borish.

7. Tashis markazi va xamkasaba psixologlar bilan tajriba almashib borish;
8. Ta`lim muassassasi doirasida psixologik tashxis vositalari va tadqiqot natijalari bo`yicha “ma`lumotlar bankini” yaratish.

Yuqorida takidlangan muloxazalarga tayanish ta`lim muassasasida psixologik tashxisnii samarali tashkil etishda yordam beradi.

1.4. Umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi psixolog ishining o`ziga xos tomonlari

Psixolog ishini nimadan boshlashi kerak?

Bugungi kunda ko`pchilik umumiy o`rta ta`lim maktablari o`zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o`qituvchilar ko`pincha psixologning qo`lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o`zgarmaganini ko`rishgach, ularda «Maktab psixologining o`zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug`iladi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o`rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko`pincha amaliyotning ular oldiga qo`ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o`rta ta`lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish:
2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik- pedagogik o'rganilishini taminlash:
3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas.

Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir.

Psixolog adaptatsion davrining qiyin kechishiga bir necha omil sabab bo'ladi. Ko'pincha o'qituvchilar psixologni bolalarni qanday qilib tarbiyalashni, qanday yashashni o'rgatuvchi inson sifatida ko'rib, dastlabki kezlardayoq unga nisbatan salbiy ustanovkani shakllantirib oladilar. O'z- o'ziga ishonchi sust bo'lgan o'qituvchilar psixologni go'yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida idrok etib, uni qandaydir inspektor sifatida qabul qiladilar. Bular esa psixologning maktab sharoitiga tez ko'nikib, maktab hayotiga chuqur singib ketishga halaqit beradi. Buning oldini olish uchun psixolog o'qituvchilar bilan o'zaro teng munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o'zini bilag'on qilib ko'rsatmasligi, eng muhimi bir-birini raqib deb hissoblasligi zarur. SHunga erishish kerak-ki, o'qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan boshqa mutaxassis sifatida qabul qilsinlar.

Maktabdagi ilk qadamlardan oq psixolog ma'muriyatga ularning faoliyat doirasiga nimalar kirmasligini, mo'jizalar ko'rsatish uning qo'lidan kelmasligini tushuntirishi lozim.

O'qituvchi bilan bo'lgan suhbatda u yoki bu bolaning muammosi psixologik muammo bo'lmagani uchun u bo'yicha hech narsa qila olmasligini tan olishdan qo'rqmaslik kerak. Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota - onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.
2. O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.
3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi (axir kasalni tuzatgandan uning oldini olgan ma'qulroq- da) lozim bo'ladi.

O'qituvchi psixologning mijozi va yaqin hamkori sifatida

O'qituvchilar ham alohida e'tibor talab qiladigan ob'ektdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- a) pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;
- b) pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka.
- v) sub'ekt - sub'ekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Mana shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi.

Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya. Kimdir darrov hamkorlikka shoshiladi kimdir birozdan so'ng kimgadir umuman psixolog yordami kerak bo'lmaydi. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi «soyada» qolishi kerak. SHunda u pedagoglar orasida tan olinadi. O'qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvoviqdir.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kimgadir o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilish emas, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir. Ushbu mashg'ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, o'qituvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmasinlar. Buning uchun har bir psixologik ma'lumotga ularni o'z tajribalaridan misollar keltirishga undash kerak. Oxirida esa biror bir hazil aralash testni bajarish hammaga yaxshi kayfiyat baxsh etadi.

Har qaysi maktab psixologi oldidagi savol shuki «O'zim yordamimni taklif qilaymi yoki o'qituvchilar murojaat qilishini kutaymi?» Mayli bu savolga har kim o'z vaziyatidan kelib chiqib javob bera qolsin. Lekin psixolog bir narsani unutmasinki, o'qituvchilarning unga murojat qilishi ularning pedagogik staji va tajribasiga bog'liq emas. Bu ko'proq ularning shaxsiy fazilatlariga: muloqatga kirishuvchanlik darajasi, xavotirlanuvchanlik, qiziquvchanligi yangilikka ochiqligi va boshqalarga bog'liq. O'qituvchilar bolalar haqida har qanday uzoq muddatli psixologik tatqiqotlar natijalaridan ko'ra ko'proq narsa biladi. Ular bolalar bilan har kuni muloqatga kirishadilar va tabiiyki ularga ta'sir etish uchun ko'proq imkoniyatga egalar.

Bas shunday ekan, psixolog o'qituvchining yaqin hamkori va yordamchisi bo'lishi kerak. Psixologlar shuni unutmasinlarki, maktab hayotini o'ziga xos sahna asari deb tasavvur qilsak, undagi rollar quyidagicha taqsimlangan bo'ladi:

1. Bolalar
2. O'qituvchi
3. Psixolog
4. Hisobchi
5. Oshpaz

1.5. Amaliyotchi psixolog faoliyatida mahalla, maktab va oila hamkorligining tutgan o'rnini.

Xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni ahloqiy jihatdan barkamol shaxs qilib shakllantirishdir. Buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yana yuksaltirish, milliy taraqqiyot g'oyasini o'zida mujjassam etgan ma'naviy jihatdan barkamol avlodni voyaga etkazish uchun munosib xayot shart-sharoitlarini yaratish –Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov raxnamoligida o'tkazilayotgan Davlat siyosatining ustivor yo'nalishi deb qaralmoqda.

Bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri xisoblangan amaliyotchi psixolog faoliyatidagi eng muxum bug'in bu mahalla-maktab va oila hamkorligidir. Bu uch hamkorlik asosida tashkil etilgan psixolog faoliyatining natijasida ta'lim-tarbiya birligiga, oila va maktab yaqinligiga ichki dunyo va qiziqishlarini tug'ri aniqlashga, bolaning ma'naviy- axloqiy rivojlanishiga, milliy urf-odat va an'analarimiz, qadriyatlarimizga urgatib borishga erishiladi. Bu munosabatlar amaliyotchi psixalog faoliyatidan chetga chiqib qolsa, oila yoki maktabdagi muommolarning bir-biriga qarama-qarshiligi natijasida bola uchun muhim bo'lgan bu ikki mezon uning uchun iqtisodiy va oila muammolarini

birgalikda bolaning izzat, nafsi, nafsoniyatiga ta`sir qilmaydigan yo`l bilan hal qilishi osondir.

Bolalar kattalar tomonidan ijobiy emotsional munosabatga kuchli ehtiyoj sezadi. Bolalarning ijobiy emotsioyonal semantik maydon doirasiga bo`lishi ularning ruhiy barqarorligi uchun juda katta oziqa rolini o`ynaydi. Bu maydonni esa kattalar; ota-onalar, tarbiyachilar timsolida ta`minlashlari lozim. Bu maydonning mazmunini bolalarga nisbatan sabir toqat, ularning xulq shakillariga moslasha olish tashkil qiladi. Ingliz bolalari tadqiqotchisi Djenni Lishli shunday yozadi: “Kattalar o`zlarida o`z xulqlari va munosabatlari go`dak uchun katta ahamiyatga ega bo`lgan odamlarni ko`rishlari lozim. Bu shuni anglatadiki, ba`zan kattalar bolalar emas, ularning o`zlari o`zgarishlari kerakligi haqida xulosaga kelishlari kerak. Ba`zan og`ir bo`lsa ham bolaning xato qilishini sabr-toqat bilan kutishga tug`ri keladi. Ba`zan unga yordamga shoshilish kerak. Bu yana shuni anglatadik, bolalarda shaxsiy taraqqiy etayotgan, tushunchalar va qarashlarga ega bo`lgan shaxsni ko`rish kerak. Kattalar o`zlarining egiluvchan o`z – o`zini baxolashlari bilan bolalardan ko`proq quvonch ola biladilar”.

Yoshligidan rolli o`yinlar vositasida xulq shakllarini o`zlashtirishga o`rgangan bolalarda, katta yoshda vaziyatli rolli o`yinlar vositasida ijtimoiy psixologik bilimlarni o`zlashtirish, ijtimoiy ustanovkalarining shakllanishi yengil kechadi.

Bolaning ruxiy dunyosi hamma narsani to`g`ri qabul qilishga moyil. Shu bois unga biror narsani tushintirish jarayonida imkon qadar to`g`rilik bilan o`qitish kerak. Bolaning sezgilari kuchli, kunikish qobilyati yuksak bo`ladi.

Shuning uchun bir ishni buyurganda “Bilaman sen bu ishni darxol bajarib tashlaysan, qo`lingdan hamma ish keladi” deb uning ko`nglini ko`tarish lozim. Bunday rag`bat bolaning kuch g`ayratini oshiradi, o`ziga bo`lgan ishochini kuchaytiradi. Aslida har qanday psixalogik omil ishonchga asosladi. Bola bir narsaga ishonsa, uning ruxida, ongi va tafakkurida o`zgarish yuz beradi. Psixologik

omilning kuchli yoki zaifligi ham uning bola ongi, ruhi va tafakkurida nechog`lik ishonch uyg`ota olishiga bog`liq. Bola qaysi ishdan ko`proq qanoat hosil qilsa, shu ishlar ularda qiziqish paydo qiladi.

Oilada ma`naviy barkamol tarbiyalash vositalardan biri-bu oilaviy an`analarni kundalik tarbiya tizimiga joriy etishdir. Bu jarayonda ota – onalarning roli katta bo`lib, faqat sog`lom muomala va samimiyat muhitgina ijobiy ta`sir ko`rsatuvchi omil hisoblanadi . Bola yaxshilikka duch kelganda o`zini erkin va ruhiyatini tetik his qiladi. Ayni shu holatda amalgam oshirilgan tarbiya bola tomonidan ichki his bilan qabul qilinadi. His qilish bu – munosabat , munosabat esa faoliyat demakdir. Demak, bola tarbiya jarayonida faoliyatga yo`nalish olib ma`naviy kuch va qudratga ega bo`ladi.

Oiladagi ma`naviy muhit bola dunyoqarashi bilimining kengayishi, tafakkurining yuksalishida alohida o`rin tutadigan kitob mutoalasi bilan ham bog`liqdir. Shuning uchun har bir ota-ona bolaning ko`nglida kitobga mehr o`yg`otishi, uning bu boradagi qiziqishini rag`batlantirishi lozim. Bugungi kunda ota-onalarning bola tarbiyasidagi mas`uliyatini instinkt darajasiga ko`tarish, oila a`zolariga tarbiya ta`sir ko`rsatuvchi an`analarni yaratish muhim hisoblanadi.

Berilgan fikrlarda kelib chiqib amaliyotchi psixolog faoliyatida quyidagi vazifalarni birlamchi qilib ko`rsatish mumkin.

1. Oilaviy qadriyatlarni o`g`il- qizlar tafakkuriga singdirish uchun yangi davr talablarini nazarda tutgan holda oilaviy tarbiya dasturini yaratish.
2. Yosh ota-onalarning farzandlari tarbiyasini olib borishga g`oyaviy va uslubiy tayyorgarliklarni kuchaytirish.
3. Oiladagi tarbiyaning miliy va umum insoniy yutuqlarini umumlashtirishdir.
4. Oila kutubxonasini tashkil etish, ota-ona, maktab va psixolog faoliyatini uyg`unlashtirish.
5. Maktab ma`muriyati qoshida “Oila instetuti”ni tashkil etib, ota-onalar uchun ta`lim tarbiya jarayonida bog`liq suhbatlar, treninglar uyushtirish.

6. Ma`naviy – axloqiy tarbiya borasidagi psixologik bo`limlarni ommabop risolalar bokitlar, ilmiy ommaviy maqollar orqali targ`ib qilish.

Yuqorida tilga olingan tarbiya shakllarini amalga oshirishning negizida avvalo amliyotchi psixologning ota-onalar ma`naviy psixologik bilim saviyasini oshirish

Ularda sog`lom tafakkur zamonaviy dunyoqarashini shakllantirish uchun qilgan harakati yotadi. Bu esa ota-onaning farzand oldidagi, el-yurt oldidagi burchini to`g`ri anglashini, insonning dunyoga kelishi va kamol topib rivojlanishiga oid psixologik qonuniyatlarni puxta bilishni, oilaviy munosabatlar doirasida miliy urf-odat, an`analarimizning eng nodirlarini turmushga singdirish orqali bolalarda miliy qadriyatlarga mehr –muhabbat uyg`otishni, ularni mustaqil fikrlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni taqoza etadi.

2. BOB. UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARIDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING VAZIFALARI VA ISH MAZMUNI

2.1. Olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarligi diagnostikasi

OLTI YOSHLI BOLALARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TASHXIS KOMISSIYALARI TO`G`RISIDA NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Olti yoshli bolalarning psixologik-pedagogik tashxis komissiyasi (keyingi matnda Tashxis komissiyasi) O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 mayda qabul qilingan “O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`limni tashkil etish to`g`risida”gi 203-sonli qarori, “O`quvchilarni kasb–hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik tashxis Markazlari to`g`risida”gi hamda mazkur Nizom asosida tuman, shahar hududida aqliy va jismoniy sog`lom bo`lgan olti yoshli bolalarni maktabda o`qishga saralab olish maqsadida tashkil etiladi.

2. Tashxis komissiyalari har bir tuman (shahar) xalq ta`limi muassasalari faoliyatini metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limi (XTMFMTvaTEB) qoshida hamda umumta`lim maktablarida tuziladi.

3. Tashxis komissiyasining tarkibi tuman (shahar) XTMFMTvaTEB tavsiyasiga asosan ta`lim muassasalari: psixolog, logoped, shifokor va boshlang`ich sinf o`qituvchisi mutaxassislardan iborat bo`lib, tegishli (viloyat) xalq ta`limi boshqarmasi buyrug`i bilan tasdiqlanadi.

4. Tashxis komissiyasi o`z faoliyatini mazkur Nizom talablari, XTMFMTvaTEB mudiri tomonidan tasdiqlangan jadval asosida amalga oshiradi.

5. Joriy yilning 1 oktyabrgacha bo`lgan davrda yetti yoshga to`ladigan bolalar umumta`lim maktablarining 1-sinfiga o`qishga to`g`ridan to`g`ri qabul qilinadi.

6. O`tgan yilning 1 oktyabridan joriy yilning 1 yanvarigacha bo`lgan davrda yetti yoshga to`ladigan bolalar umumta`lim maktablarida tuzilgan psixologik-pedagogik tashxis komissiya xulosasiga ko`ra umumta`lim maktablarining 1-sinfiga qabul qilinadi.

7. Joriy yilning 1 yanvaridan 1 sentyabrgacha bo`lgan davrda olti yoshga to`ladigan bolalar XTMFMTvaTEB qoshida tuzilgan Tashxis komissiyasining xulosasiga ko`ra umumta`lim maktablarining 1-sinfiga o`qishga qabul qilinadi.

II. TASHXIS KOMISSIYASINING ASOSIY VAZIFALARI

8. Tibbiy ko`rik xulosalariga muvofiq jismoniy va aqliy jihatdan mutloq sog`lom deb topilgan olti yoshli bolalarni maktabda ta`lim olishga ijtimoiy-psixologik va ma`naviy – ahloqiy jihatdan tayyorgarlik darajasini o`rganish.

9. Joriy yilning 1 sentyabrgacha bo`lgan davrda olti yoshga to`ladigan, psixologik-pedagogik tashxis xulosasiga ko`ra maktabga tayyor deb topilgan bolalarga umumta`lim maktablarining 1-sinfiga o`qishga tavsiya berish.

10. Tashxis natijalari asosida maktabda o`qishga tayyor emas deb topilgan olti yoshli bolalarning ota-onalariga ularni maktabga tayyorlash masalasida maslahat hamda korreksion-rivojlantiruvchi guruhlarida shug`ullanish yuzasidan tavsiyalar berish.

11. Tuman (shahar) hududidagi barcha maktabgacha ta`lim muassasalariga qatnaydigan va qatnamaydigan olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini maxsus psixologik tashxis metodikasi yordamida o`rganish.

12. Tashxis komissiyasi ish yakuni bo`yicha hisobotni XTMFMTvaTEB hamda viloyat xalq ta`limi boshqarmalariga taqdim etish.

III. TASHXIS KOMISSIYASINING TARKIBI VA ULARNING ISH TAQSIMOTI

13. Komissiya o`z ish faoliyatini XTMFMTvaTEB tomonidan o`rnatilgan tartibda tasdiqlangan jadval hamda ish reja asosida amalga oshiradi.

Komissiya raisi komissiya a`zolarining ish tartibi, ish rejasi, tashxisning sifatini nazorat etish, hududdagi olti yoshli bolalarning to`liq tashxisdan o`tishini ta`minlaydi. Ota-onalarga tashxis komissiyasining maqsad va vazifalarini tushuntiradi.

Rais Tashxis komissiyasi faoliyatining yakuni haqida XTMFMTvaTEB bo`limlarining yig`ilishlarida hisobot beradi, komissiya ishi, a`zolari haqida o`z fikr va mulohazalarini yozma ravishda taqdim etadi.

Psixolog olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini psixologik tashxis metodikalari asosida o`rganadi. Barcha mezonlar bo`yicha talablarga javob bergan bolalarga maktabda o`qishga tavsiya beradi.

Maktabga tavsiya etilmagan bolalarni maktabgacha ta`lim muassasalarida yoki uy sharoitida maktabga tayyorlash xususida ota-onalarga maslahatlar beradi.

Logoped bolaning tovush talaffuzi, fonema-fonematik eshituvi va grammatik qurilishini shakllanganlik holatini o`rganadi. bolaning og`zaki nutqini rivojlanish darajasini aniqlaydi. nutqning tempi, ravonligi va aniqlik holatini tekshiradi.

Shifokor psixologik-pedagogik tashxisdan o`tayotgan bolaning salomatlik holatini o`rganadi, uning tibbiy varaqasidagi barcha yozuvlar bilan tanishadi va tibbiy komissiya xulosasi bilan bolaning salomatligini taqqoslaydi.

Olti yoshli bolalarni psixologik-pedagogik tashxis komissiyasi tarkibida ishtirok etayotgan boshlang`ich sinf o`qituvchisi ham komissiya ishida faol ishtirok etadi, uning vazifalari komissiya raisi tomonidan belgilab beriladi.

Tashxis komissiyasi faoliyatiga yoki uning ayrim a`zolariga nisbatan bildirilgan shikoyatlar komissiya raisi, XTMFMTvaTEB vakillari ishtirokida O`zbekiston Respublikasi Qonunchiligi doirasida hal etiladi.

IY. PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TASHXIS KOMISSIYASINING ISH TARTIBI

14. Tuman (shahar) o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta`minlash kichik guruhi qoshida 6 yoshli bolalarni psixologik-pedagogik tashxis komissiyalari tashkil etiladi va komissiya raislari XTMFMTvaTEB mudirining buyrug`i bilan tayinlanadi.

15. Tashxis komissiyasi raisi hududdagi tibbiy ko`rik xulosasi asosida ta`lim muassasalarining joylashishini hisobga olgan holda ish tartibi va qabul jadvalini ishlab chiqadi, o`rnatilgan tartibda tasdiqlaydi.

16. Psixologik-pedagogik tashxis komissiyasi 1 maydan 25 avgustgacha qilib belgilanadi va o`z ish faoliyatini quyidagi tartibda tashkil etadi :

1 maydan 1 iyungacha – har kuni

1 iyuldan 1 avgustgacha – haftada 1 kun

1 avgustdan 25 avgustgacha – har kuni

17. Psixologik-pedagogik tashxis kunning birinchi yarmida (8³⁰-12⁰⁰) o`tkaziladi hamda har bir bolani ko`rikdan o`tkazishga belgilangan standart asosida 30 – 35 daqiqa vaqt ajratiladi. Psixologik-pedagogik tashxis xulosasi va tavsiyalar ota-onalarga individual tartibda ma`lum qilinadi.

18. Ota-onalar psixologik-pedagogik tashxis komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

yashash joyidan ma`lumotnoma;

tug`ilganligi haqida guvohnomaning nusxasi;

bolaning tibbiy ko`rik xulosasi;

19. Psixologik-pedagogik tashxis komissiyasi olti yoshli bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi metodik Kengashi tomonidan amaliyotga tavsiya etilgan maxsus psixologik metodikalardan foydalanadi .

20. Olti yoshli bolalarning psixologik-pedagogik tashxis komissiyasining yakuniy hisoboti XTMFMT va TEB maslaxat kengashida ko`rib chiqiladi va viloyat tashxis Markaziga taqdim etiladi.

21. Psixologik-pedagogik tashxis komissiyasi har 10 kunda shahar, viloyat, Respublika tashxis Markaziga hisobot taqdim etadi.

22. Viloyat xalq ta`limi boshqarmalari qoshida psixologik-pedagogik tashxis appelyatsiya komissiyalari tashkil etiladi.

23. Tashxis komissiyasi xulosasidan norozi bo`lgan ota-onalar komissiya faoliyatiga taalluqli shikoyat va takliflari bilan viloyat appelyatsiya komissiyasiga murojaat qiladilar.

24. Viloyat appelyatsiya komissiyasi olti yoshli bolalarni psixologik-pedagogik tashxis komissiyalari faoliyatiga doir barcha shikoyat va takliflarni, maxsus jurnalda qayd etadi, ularni ko`rib chiqadi, zarur bo`lganda bolani qayta psixologik-pedagogik tashxisdan o`tkazadi hamda o`z xulosalarini beradi.

25. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazi 6 yoshli bolalarni psixologik-pedagogik tashxis komissiya faoliyatini nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta`lim to`g`risida»gi qonun har tomonlama komil, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda ta`lim-tarbiya jarayonini har bir o`quvchining individualligiga asoslangan holda tashkil etishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning mohiyatiga singdirilgan ta`lim jarayonini individuallashtirish ham har bir bolaning jismoniy, ma`naviy-ruhiy va shaxs rivojlanishini ta`minlash omili hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik tashxis natijalaridan bolani maktabda o`qishga tayyorlash borasida maktabgacha ta`lim muassasalari faoliyatining samaradorligini ham baholash mumkin. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, maktabgacha ta`lim muassasalaridan kelgan olti yoshli bolalarning tayyorgarlik darajasi uydan kelgan bolalarnikidan ancha yuqori hamda maktabda ularni o`yin faoliyatidan o`qish faoliyatiga “silliq” o`tkazish imkoniyati ko`proq. Tahlillardan “Bog`cha-maktab” majmualarida bolalarni maktabga tayyorlash samaradorligi ancha yuqoriligi ma`lum bo`ldi. Bu maktabgacha va boshlang`ich ta`lim uzviyligini ta`minlashda bog`cha va maktab hamkorligini yanada kuchaytirish zarurligini ko`rsatadi.

Aslini olganda, ta`limning insonparvarlik tamoyiliga asoslansak, tayyorgarlik ko`rsatkichidan qat`iy nazar maktabda o`qish uchun hammaga va har bir bolaga yetarli shart-sharoit yaratilmog`i lozim. YA`ni nafaqat bola maktabda o`qishga, balki maktab ham har bir bolani o`qitishga tayyor bo`lishi kerak. SHuning uchun

ham olti yoshli bolalarni tibbiy, psixologik-pedagogik tashxisdan o`tkazish “saralash imtihoni” emas, balki bola bilan o`tkaziladigan navbatdagi korreksiya-rivojlantirish ishlari yo`nalishini belgilab beruvchi vosita hisoblanadi.

Olti yoshli bolalarni maktabga umumetuklik darajasini tashxis qilish hamda ularni o`qishga moslashtirish ishlarida muammolar, yo`l qo`yilayotgan tipik kamchiliklar ham anchagina.

Yaqin-yaqinlargacha ota-onalarning o`z bolalarini maktabga tayyorlash masalasi unchalik qiziqtirmas, 7 yoshga kirgan bola to`g`ridan-to`g`ri maktabga qabul qilinar edi. Quvonarlisi shundaki, endilikda ota-onalar bolalarini maktabga tayyorlash va ularning maktabda o`qishiga befarq emaslar. Ular bog`chada bolalari «nima bilan shug`ullanadi, nimani o`rganadi» bilan qiziqishmoqda. Qo`shimcha mashg`ulotlar (repititorlik guruhlariga) bolalarini olib borib «ertaroq o`qish, yozish, sanoqqa o`rgatish»ga harakat qilishmoqda. Ota-onalarning kuyinchakligi, o`z bolasining ertasi uchun qayg`urishi yaxshi albatta, lekin bolani maktabga tayyorlashda bunday ortiqcha urinishlar ayrim hollarda bolalarni toliqtirib, ularning jismoniy va psixik rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Kuzatishlardan ma`lumki, ko`p bolalar ota-onasining xohishi va «elib-yugurishi» bilan hali o`qishga tayyor bo`lmay turib, maktab ostonasiga qadam qo`yishadi. Afsuski, o`qish davomida aqliy-ruhiy zo`riqish olish oqibatida turli kasalliklarga chalilib, jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsonlar paydo bo`ladi. Bunday bolalarda eng avvalo miya strukturasining va nerv-psixik jarayonlarining maktabda o`qish uchun to`liq yetilmaganligi, ko`ruv-harakat koordinatsiyasi va kichik motorikaning rivojlanmaganligi, mantiqli fikr mahsuldorligining pastligi kuzatiladi. Undan tashqari motivatsiya, irodaviy jihatlarining shakllanmaganligi, ayniqsa ixtiyoriy diqqat va xotira, hatti-harakatni ixtiyoriy boshqariluvdagi muammolar maktabda o`qishga tayyor bo`lmagan bolalarning muvaffaqiyatli o`zlashtirib ketishiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bir so`z bilan aytganda bunday bolalarda hali «O`quvchi ichki pozitsiyasi» shakllanmagan bo`ladi.

Shu o`rinda ««maktabda o`qishga tayyorlik» yoki «maktabda o`qishga umumetuklik» nima?» degan savol javobiga to`xtalsak.

Oxirgi 15-20 yil davomida chet ellar va mamlakatimizda juda ko'p olimlar, psixologlar va pedagoglar bu savol ustida bosh qotirgan bo'lsalarda, haligacha bolaning maktabda o'qishga tayyorligini belgilab beruvchi aniq mezonlar ishlab chiqilmagan. Chet el psixologlari maktabga umumetuklikni «bola maktabda o'qish qobiliyatiga ega bo'ladi»: (E.SHVansara) yoki «maktab programmalarini o'zlashtirish uchun kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarga ega bo'ladi» (A.Anastazi) deb, talqin etishadi.

Sobiq ittifoq davrida ham A.V.Zoporojets, L.I.Bojovich kabi olimlar bu muammo ustida qator ilmiy izlanishlar olib borishgan. SHuni aytish joizki, taniqli psixolog L.A.Venger va uning hamkasabalari tomonidan ishlab chiqilgan nazariy asos e'tiborga loyiq. Unda fundamental psixologiyaning asosiy tamoyili ya'ni, insonning barcha psixologik xususiyatlari uning faoliyati jarayonida shakllanishi asos qilib olingan. L.A.Vengerning fikricha maktabgacha ta'lim yoshidagi bolada maktabda o'qishga xos xususiyatlar hali shakllanishi mumkin emas, chunki bu xususiyatlar faqat o'qish jarayonida shakllanadi. SHu nuqtai nazardan bizning fikrimizcha, maktabga psixologik tayyorlik bolada o'qish ko'nikma va malakalarining shakllanganligi bilan emas, balki o'qiy olishga tayyorlik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ko'rinib turibdiki, maktabda o'qishga tayyorlik muammosi ko'p qirrali bo'lib, uni o'rganish har tomonlama psixologik, fiziologik va morfologik tadqiq qilishni taqazo etadi.

Biz bolani maktabda o'qishga tayyorlash kerak emas degan fikrdan yiroqmiz, lekin bolaning bilish jarayonlarining rivojlanishiga kichik yoshidanoq o'qishni, sanashni, yozishni o'rgatish bilangina erishib bo'lmaydi. YAna bir qonuniyat bor: har qanday taraqqiyot ko'rgazma-obrazlilikdan abstrak-mantiqiylikka qarab boradi. Agar biz bolaga u o'qishga aqliy, ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor bo'lmay turib harf va raqamlarni yozish, o'qishni o'rgatsak, bu rivojlanish qonuniyatini teskari o'girib qo'yamiz. Psixolog olimlarning fikricha, psixik va evolyutsion taraqqiyot qonunlari ham fizik qonunlardek buzilmas hamda universaldir.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, neyrofiziologik jihatdan ixtiyoriy diqqat va o'qish uchun zarur bo'lgan ko'plab miyada kechadigan

jarayonlar asosan 7-8 yoshda (aqliy yoshi o`zib ketgan bolalarda 6 yoshda ham) shakllanadi. Ya`ni, shu yoshda miya 45 minutlik aqliy mehnatga tayyor bo`ladi. Bizning fikrimizcha, bola maktabgacha ta`lim yoshida «o`yinga to`ymasa», uni «majburan» o`qish, yozish, sanoqqa o`rgatish oftobdan to`yib yetilmagan tarvuzning dumini burab qo`yib qizartirishdek holatdir.

Umuman, olti yoshli bolalarni maktabga tayyorlash, ularni maktabda o`qishga tanlash va o`qitish muammolari dolzarb bo`lib, bu muammoni hal etish ta`limning boshqaruv organlari, olimlar, pedagoglar va psixologlarning hamjihatlikdagi harakatini taqazo etadi.

Ma`lumki, maktabgacha yosh davrida bolalar uchun asosiy faoliyat turi-o`yin hisoblanadi. Albatta, olti yoshli bolada (ko`proq maktabgacha ta`lim muassasalariga tortilgan bolalarda) ilk o`quv motivlari shakllangan bo`ladi, shunga qaramasdan olti yoshli bolalarni o`yin faoliyatidan o`quv faoliyatiga jismoniy, aqliy zo`riqishsiz, silliq o`tishini va moslashuvini ta`minlash borasida qator ishlarni amalga oshirish kerak bo`ladi.

Ko`pgina tadqiqotchilarning (E.G`oziyev, L.D.Stolyarenko, M.Rasulova va b.) ta`kidlashlaricha, olti yoshli bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o`ziga xos ehtiyojlarning mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o`z mohiyati bilan muayyan bilim, ko`nikma va malakalarni egallashga, tevarak-atrofdagi voqelikni o`zlashtirishga emas, ko`proq «o`quvchi bo`lish» istagini aks ettiradi. Shu ehtiyojlar zahirida o`z sumkasiga, dars tayyorlash burchagiga, kitob qo`yish javoniga ega bo`lish istagi, kattalardek har kuni maktabga qatnash tuyg`usi yotadi, xolos. Umuman olganda, bu yoshda bola hali o`qishning tub mohiyati va vazifasini to`liq anglamaydi. Maktabga borgandan so`ng uning o`quvchilik safiga qabul qilinishi, ota-onasining har kuni maktabga kuzatib qo`yishi, kutib olishi, (e`tibor bering, bog`chaga qatnayotgan vaqtidagi olib borib qo`yish, olib kelishi emas), aynan kuzatib qo`yish va kutib olish, o`qituvchilar va kattalarning unga samimiy tilaklari, sinfdoshlari bilan saf tortib yurishlar, tanaffus vaqtidagi o`yinlar, o`qituvchining uy topshiriqlari, unga bittalab so`zma-so`z tushuntirishlari bolani o`ziga «rom» etadi. Ko`p vaqt o`tmay bular asta-sekin uning uchun o`z ahamiyatini yo`qota boshlaydi. Bola endi o`qishni aqliy

mehnat ekanligini, diqqatini, irodasini ishga solishi kerakligini, ayrim hollarda yoqtirmagan ishi bilan ham shug`ullanishi kerakligini, bundan tashqari, o`z xulqini idora etishi, hatti-harakati uchun javob berishi lozimligini anglay boshlaydi. Shu holatda aqliy mehnat ko`nikmasiga ega bo`lmagan bolaning o`qishdan ko`ngli soviydi, unda umidsizlik hissi paydo bo`ladi, natijada bola maktabda o`quv faoliyatiga to`liq moslasha olmay qoladi. Kuzatishlardan ma`lumki, maktabga uydan kelgan bolalarga nisbatan maktabgacha ta`lim muassasalaridan kelgan bolalarning o`qish faoliyatiga moslashuvi ancha silliq va osonroq kechadi. Uydan kelgan bolalarda muqim o`tirib aqliy mehnat bilan shug`ullanish malakasi sustroq shakllanganligi ularni maktabga tayyorlashda tizimli va maqsadli yondashilmaganlikning oqibati hisoblanadi.

Ma`lumki, har bir yosh o`ziga xos va boshqa yoshlardan farq qiladigan xususiyatlarga ega. 6-7 yoshga borib bola yuragi 4-5 baravar kattalashadi, bosh miyasining vazni esa taxminan 1350 gr yetadi. Bu yoshda skelet suyaklari jadal takomillashib, tayanch-haratlanish apparati mustahkamlanib boradi va bola turli-tuman muvofiqlashgan harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo`ladi. Xuddi shunday markaziy nerv sistemasining funksiyasi takomillashadi, shartli tormozlanish rivojlanadi. Olti yoshda organizmda bu o`zgarishlar intensiv kechadi, bu davrda sut tishlar doimiy tishlar bilan almashinadi. Shuning uchun ham olti yoshli bolani maktabga qabul qilishda, eng avvalo, uning jismoniy rivojlanish darajasini ta`lim talablariga mos ekanligini hisobga olish kerak. Aks holda, sog`lom bo`lmagan bolaga o`quv yuklamalari ko`plik qilib, uning aqliy yoki jismoniy zo`riqishiga sabab bo`ladi. Bunday zo`riqishlar oqibatida bolalar turli kasalliklarga chalinib, jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsonlar paydo bo`ladi.

E`tirof etish lozimki, ota-onalar, pedagoglar bolalarni erta yoshidan maktabga berishning foyda yoki zarari to`g`risida o`ylaganda, inson miyasi rivojlanishining o`z neyrofiziologik qonuniyati borligini alohida e`tiborga olishlari lozim. Miya quvvati har bir rivojlanish bosqichi uchun tegishli darajada taqsimlangan. Agarda bu quvvatni shu yosh davriga xos bo`lmagan ma`lum bir psixik jarayonni rivojlantirishga sarflasak, bilingki, shu quvvat tegishli bo`lgan joyda tanqislik hosil

bo`ladi. Bu o`z-o`zidan bolaning morfologik, fiziologik yoki psixik rivojlanishida salbiy burilish yoki psixik nuqsonni paydo qiladi. Taniqli neyropsixolog A.Smenovichning ta`kidlashicha, 2-5 yosh davri bolada sensomotor va emotsional hissiy jihatlarining kuchli rivojlanish davri hisoblanadi. Agar siz shu yoshda bolani o`qish, yozish, sanashga o`rgatib, uning bilish jarayonini zo`riqtirsangiz, bilingki, emotsional hissiy rivojlanish uchun zarur bo`lgan miya quvvatining tanqislashuviga sabab bo`lasiz. Bunda bolaning emotsional-hissiy jarayonlarini kechishi yoki somatik (tana) rivojlanishida kamchilik sodir bo`ladi. bunday energiya taqsimlanishining majburan buzilishi 7-8 yoshli bolalarda qo`rquv, agressivlik yoki giperfaollik holatlariga olib keladi.

Har o`quv yilining ikkinchi choragi so`ngida, olti yoshdan qabul qilingan bolalarning aqliy rivojlanish dinamikasi va maktabga moslashish darajasini o`rganish maqsadida, qayta psixologik-pedagogik tashxis o`tkaziladi.

O`tkazilgan qayta tashxis xulosalaridan ma`lumki, maktabga moslashmagan bolalarda bilish psixik jarayonlari, mayda qo`l motorikasi va ko`ruv-harakat koordinatsiyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, mantiqli fikr mahsuldorligining pastligi, motivatsiya va irodaviy jihatlarining to`liq shakllanmaganligi, xatti-harakatning ixtiyoriy boshqaruvidagi muammolarning mavjudligi, ularning muvaffaqiyatli o`zlashtirib ketishlariga salbiy ta`sir ko`rsatadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, neyrofiziologik jihatidan ixtiyoriy diqqat va o`qish uchun zarur bo`lgan ko`plab miyada kechadigan jarayonlar asosan 7-8 yoshda (aqliy yoshi o`zib ketgan bolalarda olti yoshda ham) shakllanadi. Ya`ni shu yoshda miya 45 daqiqalik aqliy mehnatga tayyor bo`ladi. Shuning uchun ham ota-onalar olti yoshli bolalarini maktabga olib kelishdan oldin, shu omillar haqida jiddiy o`ylab ko`rishlari kerak.

Xuddi shunday, hududiy tashxis Markazlari mutaxassislari, tibbiy xodimlar, maktablarda tashkil etilgan psixologik-pedagogik tashxis komissiyalari a`zolari, o`qituvchilar va maktab ma`muriyati ham maktabga jismonan, aqlan, ma`nan va psixologik jihatdan mutloq, har tomonlama tayyor bo`lgan olti yoshli bolalarni tanlab jalb etish hamda ularni o`quv faoliyatiga moslashtirish ishlariga yanada

mas`uliyatliroq yondashishlari lozim. Zero, olti yoshli bolaning maktabda muvaffaqiyat bilan o`qib ketishi kattalarning xohish-istagi bilan emas, balki uning o`zining o`qishga tayyorgarlik darajasi, imkoniyat va qobiliyatiga bog`liq bo`ladi.

O`quvchilarning rivojlanish dinamikasini uzluksiz kuzatib borish va bosqichma-bosqich psixologik-pedagogik tashxis qilish maqsadida barcha 1-sinf o`quvchilari uchun «Psixologik-pedagogik tashxis daftari» yuritilmoqda. Mazkur daftar har bir o`quvchining o`ziga xos rivojlanish yo`nalishini belgilab borish va uni o`z vaqtida korreksiyalash (tuzatish) imkonini beradi.

Olti yoshli bolalarning maktabga moslashuvi va aqliy rivojlanishini maqsadga muvofiqlashtirish uchun maktab amaliy psixologlari va o`qituvchilar tomonidan «Psixologik salomatlik maktabi» korreksiya-rivojlantirish mashg`ulotlarini o`tkazish muhimdir.

Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalar uchun

“ Psixologik salomatlik maktabi ” korreksion rivojlantirish dasturi

Maktabga qabul qilingan olti yoshli bolalarni yangi ijtimoiy muhitga moslashtirish maktab psixologi va boshlang`ich sinf o`qituvchisi faoliyatida muhim o`rin tutadi.

Tajribalar shuni ko`rsatadiki maktabdagi o`zlashtirmaslikni asosiy sabablaridan biri bolalarni ta`limga tayyor emasligi, ularning “etilmaganligidan”dir. Ana shu “etilmaganlik”ni o`z vaqtida aniqlab, bartaraf qilish bolaning maktabda o`qishiga moslashtirish va psixiokorreksion ishlar mazmunini belgilaydi.

Eng avvalo bolaning psixologik salomatligi uchun g`amxo`rlik ko`rsatgan holda, o`yin faoliyatidan asta-sekin o`quv faoliyatiga o`tishni ta`minlash zarur.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, bolalarni yangi hayot bosqichiga moslashuviga yordam beradigan, muayyan maqsadga yo`naltirilgan rivojlantiruvchi mashg`ulotlarga zarurat tug`iladi.

Maktab ta`limiga psixologik jihatdan tayyorlik birinchidan, bilim olish uchun bolada moyillik va o`quvchining ijtimoiy yo`nalishi shakllangan bo`lishi, ikkinchidan, o`z tengdoshlari bilan aloqa qila bilishi, o`qituvchining talablarini bajarish, o`z xulqini nazorat qila olish kabi jihatlarining shakllanganligiga bog`liq. Bular bolani o`quv faoliyatiga “silliq” o`tishini taminlaydi.

Asosiy mezonlardan biri bolaning sog`lom, chidamli bo`lishidir, aks holda dars va butun o`qish kunida unga beriladigan yuklamalarga chidam berishi qiyinlashadi.

Nihoyat, yana bir muhim va balki eng asosiy tomonlaridan biri, uning aqliy jihatdan yaxshi rivojlanganligi hisoblanadi.

Aynan shu tomon maktabda olinadigan bilimlar va ko`nikmalarni muvoffaqiyatli o`zlashtirish, intellektual faoliyatini optimal ushlab turish va sinf bilan birga ishlashga ulgurishini belgilaydi.

Insonga dunyoni bilish va tadqiq qilish instinkti (mayli) tug`ilishidan mavjuddir. Boladagi ana shu imkoniyatlarni rivojlantirish va namoyon qilishga yordam berish ayniqsa muhimdir.

“Psixologik salomatlik “ dasturi aynan shu maqsadni ko`zlaydi.

Ushbu dastur asosida guruh sharoitida bolaning shaxsiy, aqliy faolligi oshiriladi va bolalarning maktabga moslashish jarayonlarini oson kechadi.

Mashg`ulotlar jarayonida bolaning bilish psixik jarayonlari:

diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi, ular uchun mumkun qadar tabiiyroq hisoblangan shakl – o`yinlar yordamida rivojlantiriladi.

Guruhiy o`yinlardan foydalanish, muloqot ko`nikmalari, bir – birini o`zaro tushunish, sherikchilik, o`zaro mas`uliyatni sezish kabi xislatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi. Shuningdek, dastur o`qishga moyilligi, qabul qilishi, xotira, fikrlash kabi bilish jarayonlari rivojlanishi yetarli bo`lmagan 7 yoshli bolalarga ham mo`ljallangan.

Mashg`ulotlar bir xaftada 2 marta o`tkaziladi va har bir mashg`ulot 30 daqiqaga mo`ljallangan.

Olib boruvchiga tavsiyalar:

1, Bolalarga ko`proq mustaqillik bering. Bolada “ixtiro”ni o`zlari qilsinlar, tayyor bilimni berishga shoshilmang.

2.Har bir bilimning muhimligini ko`rsatishga harakat qiling, misollar keltiring.

3. Mashg`ulotlarga o`ta qiziqish bilan qarang, ijodiy ko`tarinkilik muhitini vujudga keltira biling .

4. Har bir bola o`z muvaffaqiyatlari, yutuqlarini ko`ra bilsin.

Uning “o`shishi”ni, sabr -toqati va harakatini aytib boring.

5. Bolaning imkoniyatlari va qobiliyatlarini xolisona baholang.

Bir bolani boshqa bir bola bilan taqqoslamang.

Masalan, “Ko`rdingmi, Alisher topshiriqlarni qanday tez bajardi”, uning o`rniga “Sen bugun oldingidan ko`ra tezroq bajarding!” Bunday muomala bolada o`z imkoniyatlariga ishonish hissini shakllantirib boradi.

Mashg`ulot o`tish jarayonida taqdim etilayotgan o`yinlar bolalarga quvonch bag`ishlashi, o`z kuchiga ishonch uyg`otishiga qaratilganini yodda tutmoq zarur. Korreksion-rivojlantirish dasturning samaradorligini aniqlash maqsadida mashg`ulotlar yakunida bolaning bilish jarayonini, nutqi, shaxslararo

munosabatlari, ijtimoiy moslashuv malakalari tashxis etiladi va sifat o`zgarishlar dinamikasi tahlil etib boriladi.

2.2. Iqtidorli (iste`dodli) bolalarni izlash, tanlash va ularga ta`lim-tarbiya berish

Insoniyat o`zining ijtimoiy taraqqiyotining bugungi kuniga kelib, aql-zakovat yoki ijod mahsuli bo`lgan g`oya ham mulk ekanligini aniq va ravshan belgilab oldi. Intellektual mulk deb ataladigan boylik sohibi o`z iqtidori, aql-zakovati bilan buyuk ijod namunalarini, ixtirolarni yaratadiki, bu o`z navbatida insoniyat va jamiyat taraqqiyotini ta`minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o`zining mashhur ijobiy «portlash effekti» to`g`risida gapira turib: - «Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quvvatning to`liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo`lgan shart-sharoit yaratilsa,.. har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste`dodini avvalo o`zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to`liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur`at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas.» - degan edi. Bu teran fikr, hayotiy mantiq mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularning ta`lim-tarbiyasiga berilayotgan e`tiborda o`z ifodasini topmoqda. Oldindan qilingan bu bashoratning yaqin orada haqiqatga aylanmog`i muqarrar, bu ishonch O`zbekistonning kelajagining buyukligiga bo`lgan ishonch bilan uyg`unlashib ketadi.

Iqtidorli bolalar, ularning ta`lim-tarbiyasi to`g`risida gap ketganda, ko`pincha «Qanday bolani iqtidorli deyish mumkin?» degan savol ham tug`iladi. Iqtidor tushunchasi ko`p qirrali va uning qoidasi turli-tuman. Bu qoidalarni umumlashtirib psixolog olimlar ko`pincha iqtidorni yuqori darajada rivojlangan qobiliyat, yuqori darajadagi aqliy koeffitsiyent (IQ) deb, izohlashadi. Aytish kerakki, iqtidorni o`rganish jarayonining boshlanganiga bir asrdan uzoq vaqt o`tgan bo`lsada, unga aniq yoki to`liq asoslangan ilmiy ta`rif berilmagan. Shuning uchun «iqtidor tabiat

in`omimi yoki ta`lim va tarbiyaning samarasimi?» degan savol nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda ham olimlarni, ham tarbiyachi-pedagoglarni o`ylantiradi.

Amerika qo`shma shtatlari ta`lim qo`mitasi 1972 yilda shunday qoidani tavsiya etgan: «o`zining oliy darajada rivojlangan qobiliyatlarini namoyon etib, u yoki bu faoliyatda yuqori natijalarga erishgan yoki shunga erishish imkoniyatiga (layoqatiga) ega bo`lgan bolalarni iqtidorli va talantli deyish mumkin». Amerikada bunday bolalar istiqboli faoliyatida erishgan natijalari va bir yoki bir necha soha (aqliy, akademik, ijodiy, badiiy, muomala va liderlikka intilish, harakat)ga bo`lgan layoqat, imkoniyat, qobiliyatlari asosida aniqlanadi. Makur yo`nalishlar bo`yicha iqtidorli bolalar uchun maxsus dasturlar (ko`pincha individual dasturlar) tayyorlanib, bunday bolalarga asosan maxsus maktablarda emas, oddiy maktablardagi ixtisoslashtirilgan guruhlarda ta`lim-tarbiya beriladi.

Fransiya, Germaniya maktablarida ham iqtidorli bolalar maxsus tayyorlangan psixofiziologik, psixologik-intellekt testlari yordamida saralanadi. Bu mamlakatlarda iqtidorli bolalar uchun maxsus maktablar tashkil etilgan bo`lsada, oddiy maktablarda ham ular uchun ixtisoslashtirilgan guruhlar mavjud.

Dunyoda iqtidorli bolalarni tanlash uchun Raven, Kettel (culture-fair intelligence), Veksler intellekt testlaridan foydalaniladi. Bu metodikalar madaniy muhit ta`siriga bog`liq bo`lmaganligi va noverbal (so`z ishlatilmaydi) bo`lganligi uchun juda keng tarqalgan. Mazkur metodikalarning O`zbekiston muhitiga moslashtirilgan variantlari O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazida mavjud. Hozirgi kunda 200taga yaqin, fanlar chuqur o`rgatiladigan ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda tashxis Markazlari mutaxassislari Raven, Kettel metodikalari yordamida iqtidorli bolalarni tanlash ishlarini amalga oshirmoqdalar. Bundan tashqari, Respublika tashxis Markazi mutaxassislari tomonidan mazkur maktablarga iqtidorli va qobiliyatli o`quvchilarni tanlash bo`yicha 3 ta psixologik metodikalar majmuasi ishlab chiqilib, amalga tadbiiq etilgan. Shuningdek, o`quvchilarning umumiy aqliy

qobiliyatlari bilan birga, 5 ta akademik yo`nalish (ijtimoiy-gumanitar, aniq, tabiiy fanlar, xorijiy tillar va san`at-nafosat) bo`yicha ham maxsus qobiliyatlarni o`rganish uchun psixologik tashxis metodikalari tayyorlandi.

Barcha tashxis Markazlarida «iqtidorli bolalar banki» tashkil etilgan bo`lib, mazkur tanlovlarda eng yuqori aqliy rivojlanganlik darajasini ko`rsatgan o`quvchilar kiritilgan.

Respublika tashxis Markazi mutaxassislari tomonidan o`tkazilgan tadqiqot natijalari, hozirgi kunda 6-16 yosh davridagi bolalarning o`rtacha 3-5 foizi yuqori darajadagi aqliy koeffitsiyent (IQ)ga ega ekanligini ko`rsatmoqda. Biz o`z tadqiqotlarimizda «iqtidor» tushunchasini yuqori darajada rivojlangan qobiliyat sifatida o`rganmoqdamiz. Shu o`rinda aytish lozimki, ko`pincha, hatto mutaxassislar ham, iqtidor va iste`dod tushunchalarini bir ma`noda talqin etishadi. Bizningcha, iqtidor shaxsning individual-psixologik xususiyati bo`lib, u faqat akademik faoliyat yoki aqliy-nazariy faoliyatda namoyon bo`ladi. Iste`dod esa aqliy-ijodiy faoliyatda namoyon bo`ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Albatta, bu xususiyatlar har bir insonning faqat o`ziga xos bo`lganligiga va tabiiy shartlanganligiga qaramasdan, alohida e`tibor va ta`lim-tarbiyani talab etadi. Shuning uchun ham, iqtidorli, iste`dodli bolalarni tanlab, ularni yanada rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit hamda intellektual, ijodiy muhit kerak bo`ladi. Chunki har qanday iqtidor va iste`dod faqat o`zi tegishli bo`lgan soha faoliyati jarayonida rivojlanadi va namoyon bo`ladi.

O`zbekiston Xalq ta`limi tizimida iqtidorli bolalarni izlash, tanlash va ularga ta`lim-tarbiya berish muammolari izchillik bilan hal etilib kelinmoqda. Jumladan, Xalq ta`limi vazirligi 2009 yil 27 mart 4/4 sonli va Davlat test markazining 2009 yil 27 martdagi 01-11 x/19 sonli qo`shma qarori bilan “Ayrim fanlar chuqur o`rganiladigan davlat umumta`lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflariga, davlat ixtisoslashtirilgan umumta`lim muassasalariga o`quvchilar qabul qilish tartibi to`g`risidagi” Nizom qabul qilindi.

Mazkur Nizom O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi 203-son “O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`limni tashkil etish to`g`risida”gi va 2008 yil 7 avgustdagi 173-son “Ayrim fanlar chuqur o`rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta`lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to`g`risida”gi qarorlariga muvofiq davlat umumta`lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflari, davlat ixtisoslashtirilgan maktablari va maktab internatlarga o`quvchilar qabul qilish va ularni ushbu ixtisoslashtirilgan sinf hamda ixtisoslashtirilgan umumta`lim muassasasidan o`qishdan chetlatish tartibini belgilaydi.

Ixtisoslashtirilgan sinf va ixtisoslashtirilgan umumta`lim muassasalariga tegishli sinfni muvaffaqiyatli yakunlagan, chuqurlashtirib o`qitish belgilangan o`quv fanlaridan muayyan qobiliyatini ko`rsata olgan o`quvchilar tanlov natijalari asosida O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`lim vazirligi va Davlat test markazi tomonidan qo`shma buyruq bilan belgilangan kvota doirasida qabul qilinadi.

O`quvchilarning iqtidor va iste`dodlari fanlardan olgan «a`lo» baho bilan emas, ko`proq miyada kechadigan aqliy jarayonlarning mahsuldorligi bilan o`lchanadi. Psixologik intellekt testlari o`quvchining u yoki bu fandan bilimini emas, umumiy aqliy qobiliyati va o`zi tanlagan soha bilan shug`ullana olish layoqati, imkoniyatini aniqlab beradi. O`quvchi umumiy o`rta ta`lim fani («**umumiy o`rta**»ga e`tibor bering) bo`yicha imtihonda «besh» baho olsayu, shu soha bo`yicha intellektual yoki ijodiy qobiliyati bo`lmasa, uning keyingi faoliyati unumdorligi past bo`ladi. Oxir oqibatda bunday kishi tanlagan sohasidan bezibgina qolmay, jamiyat uchun ham hech qanday foyda keltirmaydi.

Yana shuni qayd etish lozimki, iqtidorlilikni faqat shaxsning aqliy imkoniyati sifatida tasniflash uni tadqiq etishda bir tomonlamalikka olib keladi. Chunki iqtidorlilik nafaqat aql, balki shaxs tuzulmasining barcha komponentlarining uyg`un va yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Demak, iqtidor faqat aqlga emas, balki shaxsga tegishli. Iqtidorli kishi deganda biz har tomonlama rivojlangan shaxsni nazarda tutamiz. Kimdir o`z qobiliyati bilan, boshqa birov o`z

xarakteri va tashqi olamni o`ziga xos idrok etishi bilan iqtidorli bo`lishi mumkin. Ayrim holatlarda biz o`z tengdoshlaridan rivojlanishda o`zib ketgan bolalarni iqtidorli deymiz. To`g`ri, bunday bolalar qobiliyatli, lekin shunday bolalar ham borki, ular noandoza fikrlashi, voqea va hodisalarni g`ayrioddiy talqin etishi bilan iqtidorli hisoblanadi. Bunday bolalar ko`pincha tarbiyachilar, o`qituvchi va ota-onalar uchun «qiyin» va ularni tarbiyalash ham og`ir kechadi. Ayniqsa o`qituvchilar bunday bolalar hatti-harakatini baholashda, uning boshqa bolalarga o`xshamaydigan g`ayrioddiy harakatlarini qabul qilishda qiynalishadi. Aytish kerakki, bolaning rivojlanishi o`ziga xos qonuniyat asosida kechadi va o`zining ichki mantiqiga ega bo`ladi. Ichki mantiqni tushunishda quyidagi konsepsiyaga asoslanish lozim. O`z-o`zini boshqaruvchi individ rivojlanish jarayonida shunaqa xususiyatlarga ega bo`lib boradiki, bu xususiyatlar bir so`z bilan aytganda na ichki, na tashqi jihatdan shartlanmagan. Bu xususiyatlar tashqi va ichki ta`sirlarning uzviylashuvi bilan mushtaraklashadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsning rivojlanishi uning barcha qirralarini qamrab olgan holda yaxlit jarayon sifatida kechadi. Buni oddiy tilda izohlasak, hech kim shaxs bo`lib tug`ilmaydi, balki shaxs sifatida shakllanadi. Yosh davrlari davomida shaxs rivojlanishi bilan iqtidorning rivojlanishi uyg`un kechishini ta`lim va tarbiyada albatta inobatga olish lozim bo`ladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida Respublikamiz Xalq ta`limi tizimida iqtidorli bolalarni tanlash va ularga ta`lim-tarbiya berishning ilmiy asoslangan, maqsadga yo`naltirilgan uzluksiz tizimini yaratish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

6. Boshlang`ich sinf o`quvchilarining iqtidor va iste`dodlarini aniqlovchi test-anketa.

Iqtidor-shaxsning individual-psixologik xususiyati bo`lib, u faqat akademik faoliyat (fanlarni o`rganishga moyillik darajasi yuqori) yoki aqliy-nazariy faoliyatda namoyon bo`ladi. Iste`dod esa, aqliy-ijodiy faoliyatda namoyon bo`ladigan individual-psixologik xususiyatdir. Albatta, bu xususiyatlar har bir insonning faqat o`ziga xos bo`lganligiga va tabiiy shartlanganligiga qaramasdan,

alohida e`tibor va ta`lim-tarbiyani talab etadi. Shuning uchun ham, iqtidorli va iste`dodli bolalarni tanlab, ularni yanada rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit hamda intellektual, ijodiy muhit kerak bo`ladi. Chunki har qanday iqtidor va iste`dod faqat o`ziga tegishli bo`lgan soha faoliyati jarayonida rivojlanadi va namoyon bo`ladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning iqtidor, qobiliyat, qiziqish yo`nalishlarini aniqlash bo`yicha quyidagi test-anketa usulini havola etamiz. Ushbu test anketa usuli bolalarning qobiliyat, qiziqish yo`nalishlarini aniqlashda va rivojlantirishda xizmat qiladi.

Har bir inson faoliyati 7 yo`nalishning biri bo`yicha qobiliyat yoki qiziqishga ega. Bolalarning qiziqish, qobiliyat va iqtidor yo`nalishlarini aniqlash bo`yicha Amerikalik olim A. D. Xann va G. Kaff tomonidan ishlab chiqilgan test-anketa, psixologiya fanlari nomzodi Y.M.Asadov tomonidan qayta ishlanib, mintaqamiz bolalari uchun moslashtirilgan.

Ko`rsatma: Test-anketa boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan bo`lib, savollarga ota-onalar javob beradilar. Psixolog yoki o`qituvchi tomonidan savollar o`qiladi va bolaning qiziqishi, qobiliyat va iqtidorining namoyonlik darajasi 2-5 ball sistemada belgilanadi. Agar savollarda berilgan xususiyatlar bolaga juda mos kelsa “+ +” belgisi va 5 ball; namoyonligi yaxshi bo`lsa “+” belgisi va 4 ball; o`rta bo`lsa “ - - ” belgisi va 3 ball; unchalik namoyon bo`lmasa “ - ” belgisi va 2 ball qo`yiladi, ko`rsatkichlar 2 balldan past bo`lmasligi kerak.

Qiziqish va qobiliyatlar xususiyatlari

I – Texnik qobiliyat.

1. Har xil mexanizm, mashina asboblariga qiziqadi.
2. Konstruksiya va modellar bilan o`ynashni yaxshi ko`radi.
3. Buzilgan mexanizm, o`yinchoqni tuzatishga urinadi.

4. Buzilgan o`yinchoqni asboblari qismlaridan yangi o`yinchoqni yasaydi. Juda topqir, ijodkor.
5. Mexanizm mashinani rasmini chizishni yaxshi ko`radi.
6. Harakatlanuvchi, ovoz chiqaruvchi o`yinchoqlar “siri” ni bilishga intiladi, kattalardan so`raydi, buzadi.
7. Mashina mexanizmiga doir ma`lumotga qiziqadi. Rasmlarni korreksiya qiladi, jurnal o`qishga harakat qiladi.

II – Musiqiy qobiliyat

1. Qachon qayerda musiqa tovushini eshitsa, o`sha tomonga intiladi.
2. Musiqa ritmi, melodiyasini tez ilg`ab, eslab qolishga harakat qiladi.
3. Musiqa chalsa, qo`shiq aytsa, juda berilib ketadi.
4. O`z-o`zicha kuy-qo`shiqlar to`qiydi, xirgoyi qiladi. Ayrim san`atkorlarga taqlid qiladi.
5. Musiqa asbobini chalishga harakat qiladi.

III - Artistlik qobiliyati

1. So`z topolmay qolganda o`z fikr tuyg`ularini mimika, imo-ishora harakatlari bilan bildirishga harakat qiladi.
2. Biror narsa voqea va hodisani gapirganda berilib ketadi.
3. Birov haqida gapirganda beixtiyor tovushi o`zgaradi, o`sha odam ovozigga taqlid qiladi.
4. Ko`pchilik oldida bemalol, bajonidil she`r, qo`shiq aytadi, rol ijro etadi. Kattalar tomosha qilishini yoqtiradi.
5. Juda osonlik biln odamlarni, hayvonlar tovushi, xatti-harakati, odatlarini bajarib ko`rsatadi.

6. Yangilikka qiziquvchan bo`ladi, muhitga tez moslasha oladi.7. CHiroyli didli kiyinishga harakat qiladi.

IV – Badiiylikka intilish adabiy qobiliyati

1. Biror narsa yoki hodisa haqida mantiqli va asosli fikrdan chalg`imay gapirib beradi.
2. Oddiy voqea-hodisa haqida ham bo`rtirib, obrazli qilib gapirib beradi.
3. Birov haqida gapirganda u emotsional, hissiy holatlarini ham so`z orqali gapirib berishga harakat qiladi.
4. O`zi o`ylab topgan voqea-hodisalarni, jonli, qiziqarli qilib gapiradi.
5. She`r yodlashga qiziqadi. O`zi ham she`r, ertak, to`qishga harakat qiladi.
6. Tugallanmagan syujetli ertak yoki hikoya berilsa, oxirini davom ettira oladi, xulosa chiqaradi.

V – Tasviriy san`at yo`nalishi

1. O`z his tuyg`u, kayfiyatini so`zdan ko`ra rasmlar orqali ifoda etish osonroq. Biror narsani ifodalashga so`z topa olmasa rasmini chizadi.
2. Buyum, odam, hayvonlar rasmini har gal har xil chizib beradi.
3. San`at asarlariga munosabati jiddiy. Biror rasm, san`at, peyzaj diqqatini tortsa, juda jiddiylashib, xayolga berilganday bo`lib qoladi.
4. Bo`sh vaqti bo`ldimi, tezda rasm chizish, plastilindan narsa yasash, bo`yoqni tayyorlashdan erinmaydi, charchamaydi.
5. O`zi chizgan rasmlari bilan uyni, yasagan bezaklari bilan kiyimlarini bezaydi.
6. Birov chizgan rasmni klassik asarlarga o`z fikrini aytadi, tuzatadi, asosli tanqid qilishi mumkin.

VI – Sportga bo`lgan layoqati

1. Juda harakatchan va bundan charchamaydi.
2. Qo`rqmas, ko`p hollarda urishqoq va sho`x.
3. O`yin va musobaqalarda doim ustunlik qiladi, o`rtoqlari bilan janjallashsa qo`li baland keladi.
4. O`yin qoidalari, musobaqa talablarini tez ilg`ab oladi va tajribasi borday jiddiy ko`rinadi.
5. O`z tengdoshlariga qaraganda jismonan baquvvat, harakatlari izchil va yengil.
6. Kitob o`qish, rasm chizish kabi tinchgina ishlardan ko`ra harakatli o`yin va mashg`ulotlarni yaxshi ko`radi. Hech bir maqsadsiz ham chopqillab yuraveradi.
7. Hech qachon harakatdan charchamagandek tuyuladi.
8. Qaysi sportga qiziqishidan qat`iy nazar o`zi tanqid qilgan, yaxshi ko`radigan sportni “qahramoni” bor.
9. Sog`lom, ko`p harakatlanishi uchun oriq, lekin muskullari chayir, chiniqqan bo`ladi.

VII – Aqliy (intellektual) qobiliyat

1. Aqliy o`yinlarni berilib, jiddiylik bilan bajaradi. Bu bilan tengdoshlaridan ajralib turadi.
2. Mavhum tushunchalarni tez ilg`ab oladi. Fikrlarni umumlashtirib, tahlil etish olishi yaqqol sezilib turadi.
3. Mantiqliq aniq va tez fikrlaydi. Bir so`z o`zining hozirgi vaziyat-mohiyatini tushunadi.
4. Xotirasi yaxshi rivojlangan.
5. Mashg`ulotlarda yangi tushunchalarni tez va osonlik bilan o`zlashtiradi.
6. Vaziyat va mavzuga mos mantiqliq savollarni ko`p beradi.

7. O`qish va yozishga havasi kuchli, bu borada o`z tengdoshlaridag oldinda.
8. Ko`p hollarda umumiy mashg`ulotlardan zerikadi. Lekin aqliy imkoniyatlari bilan tengdoshlaridan kuchliligi bilinib turadi.
9. yechishga mos kelmagan aqliy muammo va masalalar bilan shug`ullanadi.
10. Tez ta`sirlanuvchan, juda kuzatuvchan.
11. Boshqalarni yoki o`zini fikrini mantiqli ifodalay oladi..
12. Har xil voqea hodisalar sababini mustaqil anglashga urinadi.
13. Konstruktorlar yasash, kolleksiyalar yig`ishdan erinmaydi. Bu ish bilan uzoq vaqt shug`ullanishi mumkin.
14. Mustaqil bajargan ishini natijasi ya`xshi chiqmasa, ruhi tushmay qayta bajaraveradi.
15. Juda mag`rur o`ziga ishongan.

Natijalarni tahlil qilish.

1. Har bir qiziqish, qobiliyat, iqtidor turi bo`yicha ballar har bir ustun tagiga yoziladi. Yig`indi N – iqtidorlik yo`nalishlari, ya`ni 7 (IQ um. qob.= $(Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 + Q_5 + Q_6 + Q_7) : 7$) ga bo`linadi. Iqtidorlikning namoyonlik darajasi aniqlanadi. Qaysi yo`nalish bo`yicha umumiy ball yuqori bo`lsa, o`sha yo`nalishda imkoniyatlari yuqori, yaxshi rivojlangan bo`ladi. Shu asosda bolaning qobiliyatini yanada rivojlantirish, korreksiya ishlari belgilanadi.

Bolaning har bir yo`nalish bo`yicha qiziqish, qobiliyatlarining namoyonligi past bo`lsa, aslo qayg`urmang, bu bolangizni qobiliyati yo`q degani emas. Umuman qobiliyatsiz insonning bo`lishi kam, qobiliyatlar kimdadir erta, kimdadir kech namoyon bo`ladi, maqsad bolalardagi yashirin qobiliyatlarni o`z vaqtida aniqlab, uni rivojlantirish uchun fan o`qituvchilari va ota-onalarga amaliy yordam ko`rsatishdan iborat.

Javob varaqasi

O`quvchining ismi, familiyasi -----

Cinfi -----

I	II	III	IV	V	VI	VII
1.	1.	1.	1.	1.	1.	1.
2.	2.	2.	2.	2.	2.	2.
3.	3.	3.	3.	3.	3.	3.
4.	4.	4.	4.	4.	4.	4.
5.	5.	5.	5.	5.	5.	5.
6.		6.	6.	6.	6.	6.
7.		7.			7.	7.
					8.	8.
					9.	9.
						10.
						11.
						12.
						13.
						14.
						15.

2.3. Tarbiyasi og`ir bolalar bilan ishlash

Psixolog o`z faoliyati doirasida “tarbiyasi qiyin o`quvchilar” bilan ham ishlaydi. Bunda tarbiyasi qiyin bo`lishlikning sabablarini o`rganish, profilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion ishlarni tashkil etish, amalga oshirish va uni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishi hamda o`quvchi, o`qituvchi, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqishi lozim.

Bu vazifalarni hal etishda o`kuvchilar o`rtasidagi shaxslararo munosabatlarni yaxshilash, o`smirlar o`rtasida, shuningdek, ular bilan kattalar o`rtasida to`g`ri insoniy, ishonitiruvchi o`zaro munosabatni ta`minlash muhim rol o`ynaydi.

Maktabda tarbiyasi qiyin o`quvchilarni o`rganish bo`yicha buyurtma kelib tushgan kundan boshlab, tarbiyasi qiyin o`quvchi bilan individual ishlar tashkil etish, psixodiagnostik va psixokorreksion ishlarning rejaları tuziladi va psixolog tomonidan vazifalar belgilanadi. Tarbiyasi qiyin o`quvchilar ro`yxatida turgan har bir o`quvchi uchun shaxs kartasi tuziladi va quyidagi tartibda yuritiladi.

Shaxs karta

Izoh: o`quvchi shaxs kartasi asosan talab va takliflar asosida tuziladi. SHaxs kartasida o`quvchini o`rganish davomida borilgan suhbatlar, diagnostik hamda korreksion tuzatish ishlarining tahlil natijalari, berilgan maslahat va tavsiyalar yozib boriladi. O`rganilgan barcha ma`lumotlar “Tarbiyasi qiyin o`quvchilar bilan ishlash” papkasida saqlanadi va u boshqalardan qat`iy sir saqlanishi tavsiya etiladi.

O`quvchi shaxs kartasining tuzilishi quyidagicha:

1. O`quvchining ismi, familiyasi, sinfi;
2. Sinf rahbarining ismi, familiyasi;
3. Oilaviy sharoiti
 - A) Oila a`zolari (ota-onasining ismi, familiyasi, aka-uka, opa-singillarning ismi, familiyasi, oilada nechanchi farzand ekanligini ko`rsatish);
 - B) Yashash sharoiti (bolaning dars tayyorlashi uchun sharoit yaratib berilganmi);
 - V) Oilaviy tarbiyaning o`rni (bola o`z holiga tashlab qo`yilganmi yoki uning qiziqishlari e`tiborga olinib, uning xatti-harakati nazoratga olinganmi?).
4. O`quvchi salomatligi haqida ma`lumotlar (umumiy rivojlanishi, bola sog`lommi, biror xil yuqumli kasallikga chalinganmi, kasalliklarini davolanishlari haqida ma`lumotlar)
5. O`quvchining alohida psixologik nazorat ostiga olinishining sabablari (buyurtma kim tomonidan berildi va qaysi maqsadda o`rganish uchun tavsiya etildi?)
6. Psixodiagnostik test natijalari (vaqtlari ko`rsatiladi).
7. Kuzatishlar, alohida maslahatlarning natijalari
8. O`quvchining ota – onasiga, o`qituvchisiga tavsiyalar berish.

O`quvchi shaxs kartasi maktab amaliyotchi psixologi tomonidan tuziladi. O`quvchining oilaviy sharoiti, oila a`zolarining bolaga bo`lgan munosabatlari ya`ni, bolaning oiladagi o`rni, izohli tahlil qilinib, bolaning ota – onasiga, o`qituvchiga maslahatlar va tavsiyalar berib boradi. O`quvchining alohida psixologik nazorat ostiga olinishining sabablari o`rganib chiqilgandan keyin, test tahlillari, natijalar begonalardan qat`iy sir saqlanadi. Kuzatishlar, test natijalari faqatgina o`qituvchi va ota – onaga aytiladi.

Tarbiyasi qiyin bo`lgan o`quvchilar bilan olib boriladigan ishlarni dars va darsdan tashqari o`quv tarbiya jarayonida tashkil etish mumkin. O`quvchilardagi muayyan kamchiliklarni tuzatish maqsadida quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. O`smirdagi yaxshi fazilatlarni, qobiliyatlarni, uni jamoa o`rtasida ijobiy baho olishiga xizmat qiluvchi malakalarni aniqlash va ularni har tomonlama rivojlantirish.

2. O`quvchini jamoat ishlariga jalb etib, vaqti-vaqti bilan uning jamoa oldida hisob berib turishi hamda jamoa tomonidan uning yutuqlariga baho berilishi.

3. Maktabda va maktabdan tashqarida do`stona aloqalar o`rnatilishiga yordam berish.

4. O`quv va jamoat topshiriqlarini mazmuni va hajmiga qarab asta-sekin murakkablashtirib borish, o`quvchi qo`lga kiritgan muvaffaqiyatlarga baho berish.

5. Erishilgan muvaffaqiyatlar uchun muntazam ravishda rag`batlantirib borish.

6. Tanqidga turli munosabatda bo`lishga asta-sekin o`rgatib borish.

7. O`quvchida tashqi tomondan sezilib turgan jismoniy kamchiliklar (masalan, semizlik, sepsillik, uzoqni ko`ra olmaslik va shunga o`xshashlar) mavjud bo`lgan taqdirda ular ustidan kulish, ularni masxara qilish mumkin emasligi yoki ularni izza qiladigan boshqa bir shakldagi harakatlar qilmaslik kerakligi xususida sinf jamoasi o`rtasida tushuntirish ishlari olib borish;

8. O`quvchini jamoaning ijtimoiy hayotiga jalb etish hamda uning ishlari to`g`risida muntazam hisob berib turishni tashkil etish.

9. Estetik tarbiya berish, bunda kiyim kiyish va axloq-odob estetikasiga aloxida e`tibor berish.

10. Shaxsni o`z-o`ziga hamda o`z hatti-harakatlariga to`g`ri baho berishga o`rgatish, o`z-o`zini tarbiyalashga yordam ko`rsatish.

11. O`quvchilarga ulardan chidamlilikpi, o`zini tuta bilishni, boshqalar bilan hisoblashishni, ularga bo`ysuna olishni talab qiladigan o`quv vazifalari hamda jamoat topshiriqlari berish, shuningdek shaxsning insoniy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradigan topshiriqlardan foydalanish.

12. O`quvchini asta-sekin rahbarlik qilish bilan bog`liq bo`lgan jamoat ishlariga jalb eta borish.

13. O`quvchiga o`z irodasini tarbiyalab borishida yordam ko`rsatish.

14. O`quvchining o`z xulq-atvori va faoliyati to`g`risida kollektiv oldida muntazam ravishda hisob berib borishini tashkil etish.

15. Jismoniy tarbiya bilan muntazam shug`ullanish.

Demak, o`quvchilardagi mavjud kamchiliklarning bartaraf qilinishi ularni muayyan faoliyat yo`nalishlari va turlariga jalb etishni talab qiladi.

Amaliy mashg`ulot.

“O`zingni–o`zligingni angla”

Yuqori sinf o`quvchilari uchun o`tkaziladigan korreksion mashg`ulot

(suhbat, bahs, munozara).

Maqsad: Xarakteri va shaxsiy sifatlari, xulqida og`ishlar kuzatilayotgan yuqori sinf o`quvchilarining xatti-harakatini kuzatish, “o`zini-o`zligini anglash”, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish hamda kayfiyat va hulq-atvorini boshqarishga o`rgatish.

Ko`rgazmali qurollar: 2 dona oq karton qog`ozda (qo`l panjalarining kattalashtirilgan tasviri) o`ng va chap qo`lning kaftlari va barmoqlarining chizilgan tasviri, yoqimli kuy (qushlarning sayrashi, suvlarning shildirab oqishi).

O`quvchilar soniga qarab ruchka, oq qog`oz beriladi, (o`chirg`ichdan foydalanish qat`iyan man etiladi).

Mashg`ulotga tayyorgarlik: Bu korreksion mashg`ulot ko`pdan buyon bir sinfda o`qiydigan, bir – birini yaxshi biladigan o`quvchilar bilan yarim doira shaklida joylashtirilgan stolda o`tkaziladi. O`quvchilar bir - birini ko`rib turishi kerak.

Mashg`ulotning borishi:

Psixolog: har bir inson individ holida dunyoga keladi, ya`ni chaqaloq holida, tashqi muhit taassurotlarisiz dunyoga keladi. Inson hayoti davomida, oila a`zolari, tevarak – atrofdagi insonlar, tengdoshlar ta`siri ostida ulg`ayib, shaxs sifatida shakllanib boradi. Inson shaxs bo`lib shakllanish jarayonida, o`zi bilib bilmagan holda, xarakter xususiyatida yutuq, kamchilik va nuqsonlari bilan voyaga yetadi, hech bir inson mukammal emas.

Shunday ekan, o`zimizda bor bo`lgan, lekin o`zimiz sezmagan, tan olmagan xato va kamchiliklarni, oila a`zolari, do`stlar tomonidan baholanishini to`g`ri qabul qilib, ularni o`z vaqtida tuzatib borsak, kelajakda yetuk shaxs bo`lib shakllanamiz.

Psixolog: hurmatli o`quvchilar, Sizlar ko`pdan buyon bir sinfda o`qib, do`stlashib kelyapsiz. Bir – biringiz xarakteringizdagi yutuq va kamchiliklarni juda yaxshi bilasiz. Hozir hammangiz partangiz ustidagi oq qog`ozni pastki qismiga ism, familiyangizni yozing. Chap qo`lingizni oq qog`oz ustiga qo`ying, barmoqlar orasini katta ochgan holda, kaft va barmoqlar atrofidan bilakgacha kontur chiziqni chizing. Endi varag`ingizni teskari tomonida huddi shu holni o`ng qo`lni qo`ygan holda takrorlang.

Diqqat bilan quloq soling, har bir o`quvchi sinfdoshi xarakterida mavjud bo`lgan, kuzatgan kamchilikni chizilgan chap qo`l barmoqlari orasiga faqat bitta kamchilikni yozib yonidagi partadoshiga uzatadi, varaqda yozilgan so`z qayta takrorlanmasligi kerak.

Varaq soat strelkasi bo`yicha o`ng tomondan boshlanib, birinchi o`tirgan o`quvchidan, toki oxirgi stolda o`tirgan o`quvchining qo`ligacha galma – galdan yetib borishi kerak. Chap qo`l barmoqlari chizilgan varaqqa, o`quvchi xarakteridagi kuzatilgan kamchilik yozib boriladi. Endi varog`ning teskari tomoniga o`ng qo`l barmoqlar va kaftlar orasiga o`quvchilar xarakterida mavjud bo`lgan yutuqlar yozib boriladi, ish xuddi yuqoridagidek bajariladi.

Mashg`ulot davomida o`quvchilar o`zini erkin his qilishlari uchun sharoit yaratilishi kerak. O`quvchilar yuz qiyofalari, xatti- harakatlari o`zgarishini kuzatib, natijalarini psixolog o`z daftariga qayd qilib boradi.

Yutuq va kamchiliklar yozilgan varaq navbati bilan har bir o`quvchining o`z qo`liga yetib boradi. Psixolog o`quvchilarning o`ziga tegishli bo`lgan varag`ni olib ko`z yugirtirayotgan vaqtidagi holatlarini kuzatib, kuzatuv natijasini belgilab qo`yadi.

Psixolog, sinfdoshlaringiz tomonidan xarakteringizda mavjud bo`lgan, lekin o`zingiz sezmagan, yutuq va kamchiliklarni bilib oldingiz. Bu mashg`ulotni o`tkazishdan maqsad, o`quvchi shaxsiyatini kamsitish, uni xo`rlash, xarakteridagi kamchilikni hammaga oshkor qilish emas, balki o`sha shaxsga tegishli bo`lgan kamchiliklarni o`z vaqtida bartaraf etib, uni kelajakda mukammal shaxs bo`lib yetishishiga ko`maklashishdan iborat. Mashg`ulot davomida aytilgan kamchiliklar, tavsiyalar begonalarga oshkor qilinmasdan, faqat shu sinf o`quvchilari orasida qat`iy sir saqlanishi shart.

O`quvchining o`quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy psixologik omillar uning aqliy rivojlanishi va o`qishga munosabatidir. Xulqida og`ishi bor o`quvchilar o`zi haqida, o`zining hulq – atvori to`g`risida kamdan – kam o`ylaydilar. Ko`pincha ular o`zlariga noto`g`ri baho beradilar, bunda ular o`z fazilatlari va imkoniyatlarini oshirib, yoki pasaytirib baholaydilar..

Mashg`ulot oxirida psixolog, o`quvchilar bayon qilgan fikr, mulohazalarni umumlashtirib xulosalaydi, kamchiliklar kimga tegishli ekanligini aytmasdan uning sabablari, undan kelib chiqadigan salbiy oqibatlar muhokama etiladi, o`quvchilar bahsga tortiladi, bu kamchiliklarni bartaraf etish yo`llari to`g`risida fikr almashinadi.

Psixolog o`quvchilar xarakterida mavjud bo`lgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o`z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil qilish, baholash,

o`zining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, ko`nikma va malakalarni rivojlantirish haqida tavsiyalar beradi.

2.4. O`quvchilarni o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalariga yo`naltirish hamda tavsiyanomalarni berish.

Xalq ta`limi muassasalari faoliyatini metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limlari o`quvchilarni kasbga yo`naltirish pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta`minlash kichik guruhleri, o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlari samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

Umumiy o`rta ta`lim muassasalari ta`lim olayotgan 9-sinf bitiruvchilarining qiziqishi, qobiliyati va moyilligi o`quv yili davomida kasbiy, psixologik-pedagogik tashxis metodikalari natijalari hamda o`quvchida namoyon bo`lgan qiziqish va moyilliklarning yo`nalishi ota-onalar, sinf rahbari va o`qituvchilar bilan o`tkazilgan suhbatlar asosida aniqlanadi.

O`quv yilining yakunida o`tkaziladigan yig`ilishda komissiya mazkur masalani ko`rib chiqadi, atroflicha muhokama etib, har bir o`quvchiga o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasasining tayyorlov yo`nalishlari bo`yicha o`qishni davom ettirishi yuzasidan qaror qabul qiladi.

Komissiyaning xulosa va tavsiyalari "Tashxis xaritasi"ga yoziladi va "Tashxis xaritasi"ga komissiya raisi va a`zolari imzo va muhr qo`yib yakunlaydilar. Komissiyaning tavsiya va xulosalari "Tavsiyanoma"ga ham ko`chirib yoziladi.

Komissiya yig`ilish bayonlari, qarorlar rasmiylashtirilib, komissiya hujjatlarining yig`ma jildiga tikiladi, maktab amaliyotchi psixologi yoki kasb-hunarga yo`naltiruvchisi komissiya kotibi etib tayinlanadi va komissiya ishining

asosiy hujjatlarini yuritadi hamda har bir yig`ilish bayonlarini yozib boradi. (1-*ilova*)

Tavsiyanomalar to`ldirish va taqdim etish muddatlari har yilning 1 iyunidan 20 iyunigacha qilib belgilanadi. Hududiy kamissiyalar ushbu muddatda bitiruvchilarga beriladigan tavsiyanomalarni xatosiz va o`ta talabchanlik asosida to`ldirishlari va alohida jurnalga qayd etilib, barcha imzolar bilan taqdim etishga tayyor holga keltirishlari lozim.

Tavsiyanomalarni qayta to`ldirish va buzilgan tavsiyanoma o`rniga yangi nusxasini berish davlat hujjatlarini berish tartibi asosida amalga oshiriladi.

9-sinf o`quvchilariga “Tavsiyanoma” lar berish to`g`risidagi komissiya qarori, “Tashxis xaritasi”dagi xulosa va tavsiyalar, “Tavsiyanomalar berilishini qayd etib borish daftari”dagi yo`nalish va “Tavsiyanoma”da yozilgan yo`nalishlar bir xil bo`lishi kerak. (2-*ilova*)

Mazkur yo`nalishlarni ham barcha amaliyotchi psixologlar bilmaydi, natijada noto`g`ri yo`nalish ya`ni kasb-hunar kollejlari nomi va bu yerdagi yo`nalishlarni yozib qo`yishadi. Masalan, amaliyotchi psixologlar 9-sinf o`quvchilarining “Tavsiyanoma”siga “Kompyuter”, “Boshlang`ich ta`lim”, “Tikuvchilik”, “Agronom”, “Jismoniy tarbiya” kabi noto`g`ri yo`nalishlarni yozish hollari uchramoqda.

“O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limidagi tayyorlov yo`nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi”da keltirilgan kasb-hunar kollejlariining 8 ta ta`lim sohasidagi tayyorlov yo`nalishlari bular:

- ta`lim;
- gumanitar fanlar va san`at;
- ijtimoiy fanlar, biznes va huquq;
- fan;

-muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari;

-qishloq va suv xo`jaligi;

-sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot;

-xizmatlar.

Hamda akademik litseylarning 5ta ixtisosligi bo`yicha bular:

-aniq fanlar;

-tabiiy fanlar;

-ijtimoiy-gumanitar fanlar;

-xorijiy filalogiya yo`nalishlari;

-san`at yo`nalishlaridan biri yoziladi.

Tavsiya etilayotgan kasb-hunar kollejining ta`lim sohasidagi tayyorlov ta`limi muassasasidan (akademik litsey va kasb-hunar kolleji) biri yoziladi. Kollejning nomi, yo`nalishi, hududiy manzilini va boshqa ortiqcha ma`lumotlarni yozish man etiladi.

1 iyulda maktab amaliyotchi tuman (shahar) xalq ta`limi muassasalari faoliyatini metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limlari o`quvchilarni kasbga yo`naltirish pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta`minlash kichik guruhlariga "Tavsiyanomalarning berilishi" to`g`risida hisobot beradi. Maktab jami o`quvchi sonidan kelib chiqqan holda, tuman (shahar)lar maktablar kesimida, viloyat tuman (shahar)lar kesimida ma`lumot tayyorlaydi. (3-ilova)

1 sentyabrda 9-sinf bitiruvchilarining akademik litsey va kasb-hunar kollejariga o`qishga qabul qilinganligi to`g`risidagi ma`lumotnomaga asosan "Tashxis xaritasi"ning oxirgi varag`i tahlil qilinadi. Nechta o`quvchi tasiyanomada berilgan yo`nalishdan boshqasini tanlaganligi aniqlanadi. (4-ilova)

Boshqa yo`nalishni tanlaganlik sabablari motivlar bo`yicha qiyosiy tahlil qilinadi va 4-ilovada berilgan jadvalga asosan 1 sentyabrda tuman (shahar) xalq ta`limi muassasalari faoliyatini metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limlari o`quvchilarni kasbga yo`naltirish pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta`minlash kichik guruhlariga hisobot beriladi. O`z navbatida tuman (shahar) xalq ta`limi muassasalari faoliyatini metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limlari viloyatga, viloyat Respublika tashxis Markaziga 10 iyulda hisobot beradi.

1-ilova

_____viloyati, _____tuman (shahar) xalq ta`limi muassasalari metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limi ____ - umumiy o`rta ta`lim maktabining 9-sinf bitiruvchilarini o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalariga yo`naltirish bo`yicha komissiya yig`ilishining ____ - sonli

BAYONNOMASI

“ ____ ” _____ 2012 yil _____ tuman (shahar), qishloq

Qatnashdilar:

1. _____ - maktab direktori, rais
2. _____ - ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha direktor o`rinbosari, a`zo
3. _____ - kasb-hunarga yo`naltiruvchi, rais o`rinbosari, a`zo
4. _____ - maktab psixologi, mas`ul kotib
5. _____ - sinf rahbarlari, a`zo
6. _____ - akademik litsey va kasb-hunar kollejlari vakillari, a`zo
7. _____ - mahalla (qishloq) fuqarolar yig`ini vakili, a`zo
8. _____ - ota-onalar qo`mitasi vakili, a`zo
9. _____ - shifokor (hamshira), a`zo

Kun tartibi:

9-sinf bitiruvchilariga o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining tayyorlov yo`nalishlariga "Tavsiyanoma"lar berilishi to`g`risida.

Eshitildi:

9-sinf bitiruvchilarining kasb-hunarga moyillik, qiziqish va qobiliyatlarini psixologik-pedagogik, kasbiy tashxis natijalari va xulosalari to`g`risida maktab psixologi _____ ning axboroti _____

Komissiya har bir 9-sinf bitiruvchisiga berilgan tegishli tashxis xulosalari va qo`shimcha ma`lumotlarni o`rganib, tahliliy xulosalar asosida

Qaror qiladi:

1. 9-sinf bitiruvchilari ro`yxatga ko`ra ta`limning keyingi bosqichida o`qishni davom ettirishi uchun quyidagi tayyorlov yo`nalishlaridagi o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalariga tavsiya etilsin.

№	Bitiruvchining ismi, familiyasi va otasining ismi	O`qigan sinfi	Belgilangan tayyorlov yo`nalishi	Ta`lim muassasasining turi

2. Komissiya ish hujjatlarini rasmiylashtirish va hisobotlarni belgilangan muddatda tuman, shahar tashxis Markaziga topshirish kotib(a) _____ ga yuklatilsin.

(maktab amaliyotchi psixologi)

Komissiya raisi:

Maktab muhri

Komissiya kotibi:

Sana, oy va yil

_____ viloyati _____ tuman (shahar) xalq ta`limi muassasalari metodik ta`minlash va tashkil etish bo`limi ____-sonli maktabning 9-sinf bitiruvchilariga tavsiyanomalarni berilishini qayd etish

JURNALI

(maktab uchun hisobot shakli)

O`quvchining	Tavsiyanoma	SHahodatnoma	AL yoki	Yo`nalishi	SHaxsiy
--------------	-------------	--------------	---------	------------	---------

F.I.O	berilgan sana	raqami	KHK		imzo
Jami					
Berilmay qoldi					

Tavsiyanomalar berish to`xtatildi

(sana, yil)

Komissiya raisi

(imzo)

(maktab direktori)

M.O`

2-ilova

TAVSIYANOMA

_____ raqamli shahodatnomaga
ilova
_____ viloyati
_____ tuman (shahar) dagi
_____-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabning
9-sinf bitiruvchisi

(ta`lim sohasinig nomi)

Tayyorlov yo`nalishidagi _____

_____ bo`yicha

(kasbi yoki ixtisosligi)

o`qishni davom ettirish tavsiya etiladi.

2-shakl

<p style="text-align: center;">TAVSIYANOMA</p> <p>_____ raqamli shahodatnomaga</p> <p style="text-align: center;">ilova</p> <p>_____ ANDIJON _____ viloyati</p> <p>_____ ASAKA _____ tuman (shahar) dagi</p> <p>10- sonli umumiy o`rta ta`lim maktabning 9- sinf bitiruvchisi</p>

<p style="text-align: center;">TA'LIM</p> <p style="text-align: center;">(ta`lim sohasining nomi)</p> <hr/> <p style="text-align: center;">Tayyorlov yo`nalishidagi: Maktabdan va sinfдан tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi _____ bo`yicha</p> <p style="text-align: center;">(kasbi yoki ixtisosligi)</p> <p style="text-align: center;">o`qishni davom ettirish tavsiya etiladi.</p> <p style="text-align: center;">Komissiya raisi</p>

3-shakl

TAVSIYANOMA

_____ raqamli shahodatnomaga

ilova

_____ **ANDIJON** _____ viloyati

_____ **ASAKA** _____ tuman (shahar) dagi

10- sonli umumiy o`rta ta`lim maktabning 9-
sinf bitiruvchisi

_____ **AKADEMIK LITSEY** _____

(ta`lim sohasinig nomi)

Tayyorlov yo`nalishidagi _____

_____ **ANIQ FANLAR** _____

_____ bo`yicha

(kasbi yoki ixtisosligi)

o`qishni davom ettirish tavsiya etiladi.

2.5. Dars mashg`ulotlarini psixologik tahlili

I. Darsning aniq maqsadlari va vazifalariga bog`liq ravishda uning tuzilishiga psixologik baho berish.

1. Darsning mavzui maqsad va vazifalari.
2. Darsning tuzilishi va uning psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligi.

2. Darsning mazmuniga psixologik jihatdan baho berish.

1. O`quv materialining sifati qanday (tasvirlovchi yoki tushuntirovchi, ko`rgazmalilik, aniqlik, mavhumlik va umumlashganlik darajasi)?

2. O`quvchi bilim faoliyatining qanday tomonlarini faollashtirish bu o`quv (obrazli yoki og`zaki mantiqiy xotirani, xayoliy tafakkurni, xayolni)?. U qanday his-tuyg`ularni uyg`otadi?

3. Mazkur material o`quvchilar bilim faoliyatining yosh xususiyatlariga, ularning hayotiy tajribasi va bilimlari darajasiga mos keladimi?

4. O`qituvchi qanday qilib murakkab o`quv materialini mazkur yoshdagi o`quvchilarning idrok etishi uchun qulay, tushunarli va qiziqarli qila oladi (bayon qilishning ravshvnligi va oddiyligi, yorqin misollar, o`xshatishlar, qiyoslashlarning mavjudligi, ko`rgazmali vositalardan foydalanish, hayot bilan bog`lanish ?).

5. O`rganilayotgan materialning tarbiyaviy ta`siri qanday (axloqiy, estetik va h.zo)? O`qituvchi uning tarbiyaviy imkoniyatlarini qay darajada qulay amalga oshiradi.

3. Darsda o`quvchilar bilim faoliyatining namoyon bo`lishi va uni boshqarish.

1. Diqqatni tashkil etish.

Mashg`ulotning barcha bosqichlarida diqqatni tashkil etish yo`llari.

Darsdagi diqqatning turlari va ularning ayrim o`quvchilarda namoyon bo`lishi.

O`quvchilar diqqatining bir ishdan boshqasiga ko`chish usullari.

O`qituvchi taklif etgan qanday faoliyat turlarida o`quvchilar diqqatining bo`linishi (taqsimlanishi talab qilindi va ular qanday qilib buning uddasidan chiqdilar?).

2. Idrokni tashkil etish va uning xususiyatlari.

Nimalar o`quvchilar idrokining ob`ekti hisoblanadi (o`qituvchining nutqi, darslik matni, turli ko`rgazmali vositalar)?

Idrok etish materialining sifati.

Ko`rgazmali vositalardan foydalanish, ularning darsdagi vazifasi.

O`quv axborotini idrok etishning tushunib olinganligi.

3. Xotirani faollashtirish va uning rivojlantirilishi.

O`qituvchining o`quvchilar xotirasiga murojaat qilishi. Bu ish mashg`ulotning turli bosqichlarida qanday maqsadda amalga oshirildi?

Darsda xotiraning qanday turlari (ko`rgazmali-obrazli, og`zaki-mantiqiy, hissiy oldindan o`ylagan, oldindan o`ylangan mexanik, mantiqiy turlari) namoyon bo`ldi?

O`qituvchi bayon qilinayotgan ma`lumotlarni yaxshiroq eslab qolishning qanday usullaridan foydalandi? (eslab qolish maqsadini qo`yish, materialga mantiqiy ishlov berish, faoliyatga kirishish, takrorlash, hissiy vazifa berish va hokazolar) ?

Darsda ayrim o`quvchilarda xotiraning qanday jarayonlari namoyon bo`ldi (eslab qolish, bilib olish, qayta esga tushirish, unutish)?

4. O`quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytirish.

O`qituvchi o`quvchilarda qanday ilmiy tushunchalarni shakllantirdi. Bunda ko`rgazmali qurollardan qanday foydalandi?

U tushunchalar o`rtasida qanday aloqalar o`rnatdi va qanday fikr mulohazalarni ishlab chiqdi?

U qanday yo`l bilan (induktiv yoki deduktiv) quvchilarni ma`lum tushunchalar va fikrlarni o`zlashtirishga olib keldi?

O`qituvchi o`quvchilarda mazkur tushunchalarni o`zlashtirish ehtiyojini vujudga keltirdimi (ularning nazariy ahamiyatini ochib berdimi, amaliy qo`llanilishini ko`rsatdimi, turmush bilan bog`ladimi va h.k)?

O`quvchilar darsda qanday o`zlashtirish darajalarini ko`rsatdilar va tushunchalarni belgilashda yo`l qo`yilgan kamchiliklar nimalardan iborat bo`ldi.

O`qituvchi o`quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini qanday faollashtirdi? Dars muammoli tuzilishi bilan ajralib turdimi? Muammoli vaziyatlar qanday yo`l bilan yaratildi? O`quvchilar javoblarni izlashda faollik ko`rsatdilar mi?

O`quvchilar qo`yilgan muammoning yechimini topish uchun qanday aniq fikrlash harakatlarini mustaqil ravishda amalga oshirdilar (bitta misolni tahlil qilib berish kerak).

Sinf muammoli ta`limga qay darajada hozirlik ko`rgan (umumiy rivojlanish darajasi; zarur bilim va malakalarning mavjudligi; savolga javob izlashda o`zini faollik bilan ko`rsatgan o`quvchilar soni)?

O`qituvchi o`quvchilarni oqilona fikrlashning tayyor usullariga o`rgatganmi, algoritm tipidagi farmoyishlar berganmi va ularni qanday kiritgan?

Dars umuman ichki tomondan qay darajada izchil, mantiqiy, barqaror qilib qurilgan?

O`quvchilar mulohazalarining mantig`i va ularning xatolari nimalardan iborat.

5. Darsda o`quvchilarning xotira tasavvuri, reproduktiv va ijodiy xayoli faollashdimi?

6. O`qituvchi o`quvchilarning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni qanday amalga oshirdi?

4. O`qituvchining teskari aloqani tashkil etishi.

1. O`qituvchi darsning qaysi bosqichlarida (so`rash vaqtida, yangi materialni o`tishda, uni musthkamlashda) o`quvchilarga qanday maqsadlar bilan murojaat qildi?

2. Darsda o`quvchilarning bilimlarni o`zlashtirishning qanday darajalarini aniqlash mumkin?

3. Teskari aloqa faqat nazorat qiluvchi emas, balki ta`lim beruvchi xususiyatga ham ega bo`ladimi? Bu hol nimalarda namoyon bo`ladi?

4. O`quvchilar darsda olingan baholariga qanday munosabatda bo`ldilar?

5. O`quvchilar javoblarining tabiati o`qituvchining bundan keyingi hatti-harakatlariga va o`zlariga ta`sir qildimi, ya`ni u teskari axborotga qarab o`z faoliyatini qanday qilib qayta qurdi.

5. Darsda o`qituvchi shaxsi va faoliyatining tarbiyaviy ta`siri

1. O`qituvchi shaxsining: uning tashqi qiyofasi nutqi, o`zini tutishi, o`quvchilar bilan muomalada bo`lish tabiatining tarbiyaviy ta`siri. Bolalarning unga bo`lgan munosabati. Darsning hissiy muhiti.

2. O`qituvchining qo`yadigan talablari va ularning o`quvchilarda qimmatli irodaviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun ahamiyati (o`quvchilarning javobiga, xulqiga, nutqiga, intizomiga va h.z.larga qo`yadigan talablari). Bolalarning bu talablarga munosabati.

3. Darsda foydalanadigan ta`lim metodlari va usullarining tarbiyaviy ahamiyati.

4. O`qituvchi qanday qilib o`quv ishlari texnikasini (tushuntirilgan narsani qanday eshitishini, yozuvlar olib borishini, vazifalarning shartlarini modellashtirish, kitob bilan ishlash, hal qilish usullarini topish, o`z-o`zini nazorat qilish va h.z.larni) o`rgatdi, ya`ni u bolalarni qanday qilib bilim olishga o`rgatdi?

6. Darsning gigiyenik bahosi.

1. Darsning qaysi vaqtida o`quvchilarning aktivligi oshirildi?

ayrim o`quvchilarning aktivligi oshirildi;

butun sinfning (u qanday maqsad bilan amalga oshirildi?)

2. Darsning qaysi vaqtida tormozlanish belgilari paydo bo`ldi? (kerishish, uyqu kelishi, o`quvchilar javobining sustlashishi)

3. Darsdan tashqari mavzularda gaplashish hollari ro`y berdimi, darsning qaysi vaqtida yuzaga keldi va nima sababdan;

4. Darsda o`quvchilar intizomining buzilganligi qayd etildimi, bu hol nima sababdan yuzaga keldi.

5. Rivojlangan tormozlanish jarayonini yo`qotish maqsadida o`qituvchi qanday usullardan foydalandi:

- butun sinf uchun;
- ayrim o`quvchilar uchun;

6. Dars o`tish vaqtidagi sinf xonasining gigiyenik bahosi:

- sinf xonasi shamollatilganmi?
- o`quvchilarning ish joylari qanday yoritilgan?
- bolalar partalarga qulay o`tiryaftilarmi? (parta ularning bo`ylariga mos keladimi?)
- sinf xonasining o`quvchi bilan to`lganligi, ta`lim normalariga mos keladimi?
- darsda o`quvchilarning faoliyatiga qo`shimcha qo`zg`atuvchilar xalaqit bermadimi?

7. Darsning natijalari.

Dars maqsadiga erishildimi?

Bu haqda qanday psixologik ko`rsatkichlarga qarab xulosa chiqarish mumkin (o`zlashtirish darajasi, diqqat, qiziqish, his-tuyg`ularni namoyish qilish)?

1. Darsda o`qituvchi o`quvchilarning umumiy rivojlanishi uchun nimalar berdi.

- o`quvchi fikrlashini faollashtirish uchun unumli foydalandimi?

2. Darsning qaysi vaqtida o`quvchilarning aktivligi oshirildi?

- ayrim o`quvchilarning aktivligi oshirildi;
- butun sinfnig (u qanday maqsad bilan amalga oshirildi?)

3. Darsning qaysi vaqtida tormozlanish belgilari paydo bo`ldi (kerishish, uyqu kelishi, o`quvchilar javobining sustlashishi)

4. Darsdan tashqari mavzularda gaplashish hollari ro`y berdimi, bu holat darsning qaysi vaqtida yuzaga keldi va nima sababdan;

5. Darsda o`quvchilar intizomining buzilganligi qayd etildimi, bu hol nima sababdan yuzaga keldi.

6. Rivojlangan tormozlanish jarayonini yo`qotish maqsadida o`qituvchi qanday usullardan foydalandi:

- butun sinf uchun;
- ayrim o`quvchilar uchun;

7. Dars o`tish vaqtidagi sinf xonasining gigiyenik bahosi:

- sinf xonasi shamollatilganmi?
- o`quvchilarning ish joylari qanday yoritilgan?
- bolalar partalarga qulay o`tiryaftilarmi? (parta ularning bo`ylariga mos keladimi?)

- sinf xonasining o`quvchi bilan to`lganligi, ta`lim normalariga mos keladimi?
- darsda o`quvchilarning faoliyatiga qo`shimcha qo`zg`atuvchilar xalaqit bermadimi?

XULOSA

Xalq ta`limi tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi shaxsning o`shini ta`minlash psixologik taraqqiyotini ta`minlovchi yuqori darajadagi shart-sharoitlar yaratish, o`rta maktabdagi o`quv tarbiya ishlarini yaxshilash, bu sohada pedogogik jamoaga ilmiy-uslubiy jihatdan yordam ko`rsatishdan iboratdir.

Psixologik xizmat xalq ta`limi tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Psixologik xizmatda tadqiqot va ta`sir o`tkazish ob`yektini maktab o`quvchilari, oqituvchilar, ota-onalar bo`lib hisoblanadi. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda, har qaysi shaxs pedogogik, o`quvchi, ota -ona manfaati va uning har tamonlama uyg`un kelib chiqishini o`rgangan holda yondashadi.

Psixolog o`quvchilar xarakterida mavjud bo`lgan yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatish, o`z xatti-harakatlarini kuzatish, tahlil qilish, baholash, o`zining kayfiyat va xulq atvorini boshqarish, ko`nikma va malakalarni rivojlantirish haqida tavsiyalar beradi.

Umum o`rta ta`lim maktablarida ish olib borayotgan amaliyotchi psixologlar o`z faoliyati davomida ta`lim muassasining ijtimoiy muhitini muvofiqlashtirishni ta`minlaydi, va ijtimoiy moslashmaslik ularning zo`riqishlarini yuz berishini oldini olish uchun psixologik xizmatning o`rni beqiyos. Psixologik xizmat faoliyati o`quvchilar aqliy faoliyat taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini diagnostika qilishga, ta`lim-tarbiyasidagi buzilishlarning psixologik sabablarni aniqlashgagina qaratilmasdan, balki bunday buzilishlarni yo`qotish va oldini olishga qaratiladi.

Bunday psixologning aniqlagan va to`plagan ma`lumotlari o`quvchilarni korreksiya qilishda faol ishtirok etish zarurligi kelib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash bo`yicha milliy dastur» va «Ta`lim to`g`risidagi» qonuni.- T.,1997.
2. Karimov I.A. O`zbekiston: Milliy mustaqillik, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - T.,1996.
3. Karimov I.A.Barkamol avlod -O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- Toshkent.:O`zbekiston.,1997
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.-Toshkent.: O`zbekiston.,1994. -301 b.
5. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2008.
6. Karimov I.A. “Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo`lida”. T., 16, 2008 yil.
7. Andreeva G.M. Sotsial`naya psixologiya:-Uchebnik.-2-e izd. -M.:Izd-vo MGU,1988.- 432 b.
8. Asmolov A.G. Lichnost` kak predmet psixologicheskogo issledovaniya.- M.:MGU, 1984. - 104 b.

9. Abul`xanova-Slavskaya K.A. Razvitie lichnosti v protsesse jiznedeyatelnosti.- V kn.: Psixologiya formirovaniya i razvitiya lichnosti- M.:Nauka, 1981 -B. 97-115
10. A.V.Petrovskiy. "Yosh psixologiya va pedagogik psixologiya". M.1979 yil.
11. A.I.Shcherbakov taxriri ostida. "Yosh psixologiyasi va pedagogik-psixologiyadan praktikum". T. "O`qituvchi"
12. Barotov SH.R. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari -T.:O`qituvchi, 1995.-56 b.
13. Barotov SH.R. Kichik yoshdagi o`quvchilar faoliyatini baholash.-T.: O`qituvchi,1992 -48
14. V.A.Krutetskiy. "O`quvchilarning ta`lim va tarbiyasi psixologiyasi". 1976 yil.
15. Vozrastnaya psixologiya: ot molodosti do starosti: Uchebnoye posobiye lya studentov i prepodavateley ucheb.zaved M.V Gamezo, V.S Gerasimova, G.G Gorelova, L.I Orlova.M.,1999.-269s.
16. Gamilton YA. Chto takoye psixologiya. – SPb.: Piter, 2004. –187s.
17. Gurevich K.M. "Chto takoye psixologicheskaya diagnostika". M., 1985.
18. Gutkina N.M. "Diagnostika i korreksiya gotovnosti detey k shkolnomu obucheniyu", "Diagnosticheskaya i korreksionnaya rabota shkolnogo psixologa".M., 1987. S. 19-38.
19. Davletshin M.G.Sostoyanie i zadachi psixologicheskoy slujby v Uzbekistane.// Nauchno metodicheskie osnovi i opit organizatsii shkol`noy psixologicheskoy slujbi. Tezisy dokladov respublikanskiy nauchno-prakticheskoy konferentsii.Buxara,15-16 sentyabrya 1989 goda. Chast` 1. Tashkent,1988 -B. 3- 5.
20. Diagnosticheskaya i korreksionnaya rabota shkolnogo psixologa: SB. nauch. tr. / Pod red. I.V.Dubrovinoj. M., 1987.
21. Detskaya prakticheskaya psixologiya pod red. T.D Marsinkovskoy.-M., "Izdvo"2000.-255s
22. Drujinina V. Psixologiya. – SPb.: Piter, 2004. – 650 s.

23. Dubrovina I.V. Teoreticheskie osnovi i prikladnie aspekti razvitiya shkol'noy psixologicheskoy slujbi. Avtoref.dokt.psixol. nauk. - Tibilisi, 1988 y. -39 b.
24. Dubrovina I.V. "Zavisimost razvitiya poznavatelnix interesov detey ot xaraktera ix podgotovki k shkole", "Nekotorie aktualnie psixologo-pedagogicheskiye problemi vospitaniya i vospitivayushego obucheniya". M., 1976. S. 291-300.
25. Zimbardo F. Sotsialnoye vliyaniye. – SPb.: Piter, 2003. – 287s.
26. Karimov V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T.:O`qituvchi, 1994. -95 b.
27. Karimova V. Psixologiya, T., 2002yil.
28. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. – T.: TGEU, 2006. –156 s.
29. Krilov V.V. Psixologiya – M.: INFRA, 2005. –259 s.
30. Leonova A.B. Psixodiagnostika funksionalnix sostoyaniy cheloveka. - M.: Izd-vo Mosk. Unv-ta, 1984. – 198 s.
31. M.V.Voxidov. "Psixologiya" T. 1981 yil.
32. M.G.Davletshin taxriri ostida "Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya" T. 1974 yil.
33. Maxmudov R.M. Kasbiy pedagogika. Darslik. – Akademiya, 2003.
34. Nemov R.S. Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vissh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M., 2003.– 437 s.
35. Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2005. – 639 s.
36. Obshaya psixologiya: Uchebnik / Pod red. prof. A.V. Karpova. – M.: Gardariki, 2005. – 232 s.
37. Psixologiya. Qisqacha izohli lug`at. – T.: 1998. – 45 b.
38. Sirliyev B.N., Beknazarov A.A., Arziqulov D.N. Psixologiya. Ma`ruzalar matni. – Akademiya., 2006.
39. Sizanov A.N. Psixologicheskiye igri. - Minsk.: «Visshaya shkola», 1995. – 302 s.
40. Freyd Z. Psixologiya bessoznatelnogo, 2-izd. SPb., 2005.
41. Yurchuk V.V. Obshaya psixologiya v sxemax i modelyax, Minsk, 2004.

42. G`oziyev E.G`. Umumiy psixologiya, 1,2 kitob, T., 2002.
43. R.I.Ivanov, M.E.Zufarova Umumiy psixologiya. – T, 2008 y.
44. Rasulova M. va boshqalar "Uchinchi mingyillikning bolasi" o`quv qo`llanma. Toshkent-2001 y.
45. Rogova Ye.I. Nastolnaya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii.-M.: 1996.
46. Xrestomatiya po vozrastnoy psixologii: ucheb.posobiye dlya studentov. sost L.M Semenyuk; pod red D.I Feldshteyna.-M.,1994. -254s
47. Syuzen N.V., Ponomov Psixotrening. - M.: 1989.
48. Shevandrin N.I. Psixodiagnostika, korrelyatsiya i razvitiya lichnosti. M.: Vldos, 1999.
49. Y.M.Asadov "Maktab amaliy psixologiyasi". Toshkent 1999.
50. [www. Ziyo.net](http://www.Ziyo.net)
51. www.rambler.ru, www.yandex.ru, www.google.uz
52. <http://www//psychology.ru>, www.glef.org, www.newhorizons.org, www.rhecherswithoutborders.org, www.thelearningweb.net.

Saylxonova Mahliyo Ramazonovananing "Umumiy o`rta ta`lim maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish mazmuni va uslublari" mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

O`zbekiston Respublikasi istiqlolining ilk yillaridanoq ta`lim-tarbiya tizimini isloh qilish, ilmiy kadrlar tayyorlash masalasi ustuvor soha sifatida belgilandi.

Mustaqil Respublikamiz kelajagi iste`dodli, barkamol yoshlarning ta`lim-tarbiyasiga bog`liq. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek,"Bilimga chanqoq iste`dodli yoshlarni topib, ularni Vatanga fidoiy insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir". Yurtimizda ta`lim muassasalarida psixologik xizmatni, yoshlarni kasbga yo`naltirish va pedagogik psixologik tashxis markazlarining tashkil etilishi, bunday g`oyat ulug` vazifani bajarish yo`lidagi

fayzli qadamlardan biridir. Zero, ta`lim muassasalarida psixologik xizmat bolalarining iqtidorini aniqlash, ularni o`z jismoniy va ruxiy imkoniyatlariga mos ta`lim muassasalariga, kasblarga yo`llash orqali ulardan mavjud iste`dodlarning yanada rivojlanishi, amaliy faoliyatida samarali natijalarga erishishlariga xamisha yordam beradi. Shu bois, ta`lim muassasalarida psixologik xizmatini takomillashtirish masalasi xozirgi kunnig dolzarb muamolardan biridir.

Bugungi kunda maktablarda amaliyotchi psixolog mutaxassisligini zarur extiyoj sifatida qabul qilinishi ushbu yo`nalishda kutilgan eng muxim qadamlardan biri deyish mumkin.

Keyingi paytlarda Respublikamizdagi barcha umum ta`lim maktablarida oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida olib borilayotgan amaliy ishlar o`sib kelayotgan yoki bunyodkor avlodni ijtimoiy taraqqiyot asosida tarbiyalashni ta`minlashga xizmat qilmoqda. Shunday bo`lsada xali xam bu borada yechimini kutayotgan pedagogik-psixologik muamolar talaygina. Bu muamolar eng avvalo umumta`lim maktablarida o`quvchi shaxsini o`rganish va rivojlantirish jarayonida shaxsni tarbiyalash jarayonlari bilan bevosita bog`liqdir.

Talaba Saylxonova Mahliyo Ramazonovana tomonidan tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi ham mazkur muammoga bag`ishlangan bo`lib, haqiqat ham dolzarbdir.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi yoritilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqot predmeti va ob`ekti mavzuga mos keladi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi "Ta`lim sohasiga psixologik xizmatning kirib kelishi" deb nomlanib uning "Chet-el va O`zbekiston ta`lim tizimiga psixologik xizmatning tadbiiq etilish" nomdagi birinchi paragafida malakatimiz va hamdo`st mamlakatlarning xalq ta`limi tizimiga psixologik xizmatni joriy etish to`g`risidagi fikrlari tahlil qilingan. Ikkinchi „Xalq ta`limi tizimida psixologik xizmat“ paragafida Xalq ta`limi tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi, o`rta maktabdagi o`quv tarbiya ishlarini yaxshilash kabi fikrlar bayon etilgan iboratdir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Umumiy o`rta ta`lim maktablarida amaliyotchi psixologning vazifalari va ish mazmuni” deb nomlanib unda maktab amaliyotchi psixologning vazifalari va ish mazmuni 5-paragrafda yoritib o`tilgan.

Bitiruv malakaviy ishi oxirida tegishli xulosalar berilgan. Ishda 50 nomdagi adabiyotdan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishida ayrim kamchiliklar ham bor.

Ular quyidagilar:

1. Ishda ayrim xatolar va g'aliz fikrlar bor.
2. Xulosa qismini yanada kengaytirish kerak.
4. Adabiyotlar ro'yxati bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talab bo'yicha rasmiylashtirilishi kerak.

Talaba Saylxonova Mahliyo Ramazonovana bitiruv malakaviy ishi tugallangan deb hisoblayman va uni himoyaga tavsiya qilsa bo`ladi bo`ladi.

Taqrizchi:

M.M.Qodirova

Navoiy davlat pedaogika instituti

“Psixologiya” kafedrasi katta o`qituvchisi

Saylxonova Mahliyo Ramazonovananing “Umumiy o`rta ta`lim maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish mazmuni va uslublari” mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ta`lim muassasalarida psixologik xizmatning joriy etilishi ta`lim tarbiya jarayonini psixologik jixatdan taminlash uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu jarayonda psixologik xizmatning o`rni beqiyosdir. Buni ushbu xizmatga o`quvchi yoshlar pedagog xodimlar va ota-onalarning qiziqishlari ortib borayotganligida yaqqol ko`rish mumkin. O`quvchilar, talabalar, amaliyotchi psixologlarga, asosan o`zlarining shaxs xususiyatlarini, irodaviy sifatleri, xis-tuyg`ulari, o`z-o`zini boshqarish imkonoyatini, intellektual saloxiyat darajasini, psixodiagnostik uslublar yordamida aniqlash va o`z imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish, rivojlantirish, kasbga yo`naltirish, shaxslararo munosabatlardagi

muamolarni hal etish masalalari bo'yicha murojat qilishadi. Pedagoglar esa bolalar o'quvchi yoshlarda uchraydigan o'qish malakalari, ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot, shaxs fazilatlaridagi buzilishlar sababini aniqlash, o'quvchi-yoshlarning o'qishga nisbatan motivasiyasini oshirish, ularga samarali pedagogik-psixologik ta'sir etish yo'llari haqida psixologik maslaxatlar olishni va o'quv-treninglarida qatnashishni xoxlashadi. Ota-onalar bolalarni to'g'ri tushinishi, ular bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish masalalariga ko'proq qiziqadilar.

Darhaqiqat, talaba M.R.Saylxonova tanlagan bitiruv malakaviy ishi juda qiziqarli va dolzarb mavzu hisoblanadi va u bu mavzuga sitqidildan yondashib, uni o'rganishga harakat qilgan. Haqiqtdan ham maktab amaliy psixologning vazifalari ish mazmuni va uslublarini o'rganish, tadqiq etish zarur va dolzarbdir.

Shu nuqtai nazardan talabaning bu izlanishi alohida dolzarbligi bilan ajralib turadi.

M.R.Saylxonova muammoga oid ilmiy manbalarni yetarli darajada o'rgangan va tahlil qilib chiqqan.

Bitiruv malakaviy ishining muvaffaqiyatidan tashqari ba'zi kamchiliklar ham bor. Ular quydagilar:

1. Bitiruv malakaviy ishida tavsiya qilingan metodikalardan tashqari, yangi metodikalar ham kiritlsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi.
2. Ishda orfografik xatolar bor, ularni bartaraf etish lozim.

Saylxonova Mahliyo Ramazonovananing "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish mazmuni va uslublari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi barcha talablarga mos keladi va himoya qilish uchun tavsiya etaman.

Saylxonova Mahliyo Ramazonovananing
“Umumiy o`rta ta`lim maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish
mazmuni va uslublari” mavzusida yozilgan bitiruv
malakaviy ishiga ilmiy rahbarning

Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning etakchi vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning etakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni

bo'lmish hindiston, Xitoy, Egipt, Vavilon, O'rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (ruh) xaqidagi I- kitobning muallifi Aristoteldan va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen', Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Ma'lumki, barcha rivojlangan mamlakatlardagi xalq ta'limi tizimining muvafaqiyati ushbu tizimda psixalogik xizmatning har tomonlama to'g'ri va samarali tarzda tadbiiq etilishi bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'pgina maorif xodimlarining diqqat e'tiborini o'ziga qaratmoqda.

Porloq kelajagimiz poydevorini, albatta yuksak ijtimoiy bilimlar majmuasi bo'lmish ta'lim tarbiyasiz va uning ravnaqisiz ko'rib bo'lmaydi.

Bugungi kunda o'zbekistonlik psixologlar guruhi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida psixologik xizmat, xalq ta'limi tizimida ishlaydigan psixologlarning malakasini oshirish va ularning attestatsiyasi haqidagi Nizom"ning ishlab chiqilishi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi O'zbekistondagi psixologik xizmat tizimining rasmiy tarzda "jonlanishi" va taraqqiy etib borishi uchun muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ushbu "Nizom" ta'lim muassasalarida tatbiiq etilajak psixologik xizmat tizimining asl maqsadi, mazmuni, mohiyati, ahamiyati, vazifalari va asosiy yo'nalishlari haqida etarlicha tasavvur hosil qilish va shu tasavvur asosida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun o'ziga xos qo'llanma va yo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Xuddi ana shu "yo'llanma" asosida bugungi kunda Respublikamiz miqyosida talaygina ta'lim muassasalarida psixologik xizmat tizimi tashkil etilgan.

Darhaqiqat, Respublika xalq ta'limi tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi, dastavval, o'quvchi shaxsini har tomonlama tushunish tahlil qilish va rivojlantirish borasida o'ziga xos yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, hamma rivojlangan davlatlarda va hamma zamonlarda ham inson omilidan unumli foydalanish muammosi eng dolzarb muammo hisoblangan. Ushbu muammoni bartaraf etish esa eng birinchi navbatda o'quv maskanlaridagi har bir o'quvchi

shaxsiga, o'quvchilar jamoasiga bo'lgan psixologik yondashuvning mazmuniga, mohiyatiga va saviyasiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

M.R.Sayilxonovaning bitiruv malakaviy ishi maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish mazmuni va uslublarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ushbu tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilangan.

5. Myammoga taalluqli adabiyotlarni o'rganish.
6. Myammoni nazariy jihatdan tahlil qilish.
7. Amaliyotchi psixolog xizmatini tashkil qilish bo'yicha hujjatlarni o'rganish.
8. Maktab amaliyotchi psixologining ish mazmuni mukamal o'rganish va uning mohiyatini yoritib berish.

Talaba M.R.Sayilxonova oldiga qo'ygan vazifalarni to'liq bajargan, bu borada ulkan ishlarni amalga oshirgan va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishgan.

Talaba M.R.Sayilxonova ushbu muammoga katta qiziqish bilan yondashdi va intiluvchan, tirishqoq talaba sifatida o'zini ko'rsata oldi.

Sayilxonova Mahliyo Ramazonovananing "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliy psixologning vazifalari ish mazmuni va uslublari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan ilmiy ish bo'lib, Davlat Attestatsiya Komissiyasi tomonidan bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi va uning muallifi pedagogika-psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olishga loyiq.

Ilmiy rahbar:

D.X.Umurzoqov